

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

Tangriqulov Abdurashidning

O'rta Osiyoda tasavvuf tarixi va qalandarlik tariqati

5120300 Tarix

**(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari

M. Radjapova

Andijon – 2015 yil

Mundarija

Reja.....	2
Kirish.....	3-4
I bob. Islomda so'fiylik va tasavvuf	5-31
II bob. Pirlar nomlari bilan atalgan tariqatlar	32-43
III bob. Qalandarlik tariqati	44-50
Xulosa.....	51-52
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	53-54
Ilovalar.....	54-63

Kirish

Din turmush tarzimizga, ma'naviy
qadriyatlarimizga ,kishilar ongiga
o'zining o'chmas muhrini bosgan.

I.A Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Jahon sivilizatsiyasi rivojida diyorimizda yetishib chiqqan allomalarning xizmatlari beqiyosdir. Ilm fanning turli sohalarida kashfiyotlar yaratgan ajdodlarimiz islom ilmlarida ham peshqadam bo'lishgan.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib uning hayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi – muqaddas dinimizning xaqqoniyligi va pokligi insonparvarligi va bag'rikengligi odamzotni doimo ezgulikka chorlashi hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarini ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamoyati bilan bog'liq.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, muqaddas islom dinimizni pok saqlash uni turli xil g'arazli huruj va xatarlardan tuhmat va bo'xtonlardan himoya qilish uning mohiyatini unib o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri tushuntirish islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib kelmoqda.

Sof islom ma'rifatini xalqimizga ayniqsa yoshlarga to'g'ri yetkazish bugunning dolzarb mavzularidan biridir.

Bugangi kunda o'zimizni anglash uchun o'tmish va madaniyatimiz va san'atimiz ota – bobolarimiz ma'naviy o'gitlarini, ularning madaniyati, diniy dunyo qarashlari, dunyoviy tafakkurini bilishimizning zarurligi kuchaymoqda. Bu ehtiyojni qondirish esa tarixni ilmiy o'rganinshuni tadqiq etish orqali bo'lishi tabiiydir. O'tmish va yaratilgan ma'naviy – madaniy va adabiy meroslarni hozirgi kunda bimalol o'rganish ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari mavjud.

Uzoq muddat diniy ta'limga muhtoj bo'lgan xalqimiz ayniqsa yoshlarimizga diniy – ma'naviy merosimiz na'munalarini yetkazishning o'zi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Bu amalga oshirilgan ish mutaqillik yillarida davlatimiz tomonidan diniy qadriyatlarni ma'naviy merosini tiklash borasida olib borilayotgan yangi zamonaviy siyosatning samarasidir.

Mavzuni o'rganish tadqiq etish jarayonida nazariy metodologik asos sifatida prezident Islom Karimov asarlaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarda chop etilgan adabiyotlar tahlil qilindi.

Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda takroran ta'kidlash mumkinki bu ish o'ziga xos ahamiyatga ega. Undagi yoritilgan ta'limotlar qarashlar yuksak ahloqiy g'oyalar, mehr- shafqat do'stlik va inoqlik, bag'rikenglik elatlararo do'stlikka targ'ib etadi. Diniy va mazhabiy ta'asufga ayniqsa diniy ekstrimizimga qarshi tarbiya ishlariga yordam beradi.¹

“Islom dinimizning muqaddas merosi – falsafa ilmini, hususan, sharq falsafasini teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish yaqin o'tmishimizdan qolgan mafkuradan holos bo'lish o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan ulug' ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakurimizni tiklash uni zamonaviy – umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir”², degan edilar yurtboshimiz.

¹ Абдулхаким Шаърий Жузжоний Тасаввуф ва инсон Адолат Т.: 2001 й, 9 - бет

² Ислон Каримов ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. Т.: 1998 й, 58- бет

I bob. Islomda so'fiylik va tasavvuf

“Islom” soʻzi “itoatgoʻylik” ,”muslim”-“itoatgoʻy” degan maʼnoni anglatadi, yaʼni musulmonchilik itoatgoʻy boʻlishdan boshlanadi. Taqvodor dindor kishini “moʻmin” deb ham ataganlar.

Prezidentimiz naznida “Islom dini – bu ota bobolarimizning dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham maʼrifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yigʻindisi emas. Ana shu maʼrifatni kishilarimiz jon – jon deb qabul qiladilar va yaxshi oʻgitlarga amal qiladilar. Mehr – oqibatli, nomusli, oriyatli boʻlishga, izzat – ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar.”¹

Chinakam musulmon quyidagi beshta asosiy qoidaga amal qilishi shart hisoblangan. Dastavval musulmon boʻlish uchun islomning eng asosiy markaziy gʻoyasi hisoblangan “Alloh yagona, undan boshqa hudo yoʻq, Muhammad uning rasuli” (La ilaho ilalloh-u Muhammad Rasul Alloh), yaʼni yakka eʼtiqodiga ega boʻlish orqali kishi oʻzini shohid itoatgoʻy ekanligini isbotlash zarur. U bu gʻoyani tilovat qilib, uch marta takrorlasa, haqiqiy musulmon hisoblanadi qanday ish boʻlmasin, moʻmon kishi yagona Allohning rahmdil va shavqatli ekanligini tastiqlovchi muqaddas soʻzlarni aytish shart boʻlgan.

Musulmonning ikkinchi vazifasi har kuni majburiy besh vaqt namoz oʻqishdan iborat. Namoz arbcha salot (ibodat) islomda eng muhim vazifasi hisoblanadi. Uni bajarmagan kishi kofir deb qoralangan. Nomozni uyda, masjidda yoki dalada ham oʻqish mumkin. Ammo moʻmin namoz oʻqishdan oldin oʻzini tozalashi (tahorat qilishi) shart. Ayrim kishilar fikricha, tahorat gigiyena ehtiyoji sifatida bajarilar emish. Asli tahoratni ham, toʻshaladigan joynamoz (sajjad) ham dindor kishining tevarak-atrofdagi nopok foni dunyodan ajratib, uni butun vujudi bilan diniy eʼtiqodga berilishiga qaratilgan ibodat elementidir. Shuning uchun, masalan, tahoratni suv yoki boshqa sharoit boʻlmagan taqdirda ham muayyan tartibga binoan uning oʻrnini bosadigon “tayammum” qilinadi. Sahroda yoki suvsiz choʻli biyobon va togʻli joylarda qoʻlini toza tuproqqa, qum yoki toshga

¹ Ислом Каримов Ватан саждагох каби мукаддасдир Т. : 1996 йил, 40- бет

suylash tahorat o`rniga o`radi. Eng muhimi – bu musulmonchilikda namoz o`qiluvchi butun vujudi bilan ibodat qiladi. Qiblaga, ya`ni Ka`ba tomon qarab namoz o`qish ham iymonli bo`lish maqsadida bajarilgan.

Musulmonchilikni uchunchi eng muhim vazifasi yilda bir marta bir oy (30 kun) davomida ro`za tutish. O`sha muddat ichida go`dak norasidalar, sayyohlar va kasallardan tashqari hamma musulmon tong otgandan tun botgunga yeyish, ichish chilim chekish, turli maishatlardan o`zini tiyishlikdir. Qorong`i tushgach, muayyan diniy qonun-qoidalarga rioya qilib, tong yorushguncha shar`an harom hisoblangan taomlardan tashqari istagan narsa iste`mol qilish mumkin. Musulmonlar taqvim-354 kundan iborat bo`lganligi tufayli ro`za (ramazom) oyi yilning turli fasliga to`g`ri kelishi mumkin. Ramozon oyidan tashqari musulmon ahd qilgan bo`lsa yoki biror kulfat kelganda ham qo`shimcha ro`za tutish mumkin. Ramozon oyida kundalik besh vaqt namozdan tashqari kechki yigirma rakatli qo`shimcha (oltinchi) namoz o`qilishi tavsiya qilinadi. Ro`za tugagach, katta hayit sayillari o`tkaziladi. Ro`za bayrami (iyd-al-fitr) kunlari masjidda jamoa to`planib hayit namozi o`qila

Har bir musulmon o`zining daromadidan yiliga bir marotaba beva – bechoralarga, miskinlarga, ilm toliblarga va boshqa muhtojlarga qirqdan birini ya`ni 2.5 foizini bermoqlik musulmonlarning keyingi farzi hisoblanadi. Musulmonchilikning bu oxirgi farzi – “zakot” deb ataladi.

Musulmon uchun farz hisoblangan beshinchi shart Makkaga ziyorat (haj)ga borish bo`lib, bu farzni imkoniyati bo`lganlar bajaradi. Bu farz - zulhija oyining birinchi o`n kunligida bajarilib, Mina vodiysida Qurbon bayrami tantanalari bilan tugaydi. Hajga borganlar maxsus oq kiyim (ihrom)da Ka`ba masjidga borib, muqaddas qora toshni yetti marta aylanib, unga sajda qiladilar. Ka`baga sig`ingandan so`ng ziyoratchilar muqaddas quduq-Zamzam suvidan ichib, Safo va Marva tepaliklari oralig`idan bir necha marta yurib o`tadilar. Rivoyatlarga ko`ra Ibrohim payg`ambarning xotini Xojar go`dak Ismoilga suv yetkazib berish uchun shu yerdan ko`p o`tgan emish. Keyin ular Arofat tog`i etagida ommaviy namozda ishtirok etgach, Mina vodiysiga borib, Ibrohim payg`ambar xudoga atagan o`g`li

Ismoil xotirasiga go`yoki Jabroil amri bilan ketirilgan qo`y so`yilganidek tantanali qurbonlik so`yish marosimini o`tkazadilar. Makkadan keyin ko`pchilik ziyoratchilar Madinaga borib payg`ambarimiz qabrini ziyorat qiladilar.

Keyingi bir asrdan ortiq davr davomida G`arb va Sharq mualliflari Islom va uning kelb chiqishi, tarixi va rivoyatlari, ibodat va aqidalari, Alloh va payg`ambarlar to`g`risida juda ko`p asarlar yaratganlar. Ular mazkur muammolarini o`z asarlarida asosan ilohoyotga, dastavval Qur`on va hadislariga tayanib bayon etganlar. Diniy masalalarga oid qaysi bir asarni olmang, barchasi o`rta asrlardagidek Alloh ismi va Qur`on suralari bilan boshlanadi. Ko`pchilik mualliflar hozirgacha etnik (milliy) birlik bilan diniy birlik (musulmonchilik)ni aralashtirib, yangicha zamonga moslashgan g`oyalarini ko`tarib chiqmoqdalar.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, keyingi o`n yilliklarda jahon islomshunosligi ancha salmoqli tadqiqotlar o`tkazib, ko`p noaniq va chalkash muamolarni hal qilishga muyassar bo`ldi. Hatto eng yirik islomshunos olimlarning eskirgan, chalkash, ammo juda keng tarqalgan fikrlarga aniqliklar kiritildi. Ayniqsa, nihoyatda qorong`u, ilmiy jihatdan kam yoritilgan arab xalqining islomgacha madaniyati, abadiy merosi, dunyo qarashi va og`zaki ijodi sohasida samarali ish olib borildi. Mazkur tadqiqotlar islomshunos fanini ancha boyitdi va to`rtinchi jahon dini tarixini sirli sahifalarini Alloh, payg`ambarlar, avliyo-anbiyolar, muqaddas kitob va rivoyatlar to`g`risida jumboqlarni yechishga imkon berdi. Biz ham ushbu yutuqlar tufayli qo`lga kiritgan xulosalar asosida islom tarixini ba`zi sahifalarini varaqlaymiz.

Hozir jahonda, yuqorida qayd qilinganidek, o`zini musulmon (muslim) deb hisoblaydigan aholining soni aniq bo`lmagan ma`lumotlarga qaraganda, 800 milliondan 1 milliardgacha, ya`ni yer kurrasida taxminan har olti kishisi musulmon. Ayrim ilohoyotchilar ta`rificha, vaqti kelib, son jihatdan musulmonlar son jihatdan birinchi o`ringa o`tarmish. Ular asosan Osiyo, Afrika va qisman Yevropa qit`alarida joylashgan. Ammo o`zini “musulmonlar” deb ataganlarning hammasini dindorlar qatoriga kiritish noto`g`ri. Chunki islom keng tarqalgan yoki hukmron bo`lgan mamlakatlarda ham diniy aqidalar va ibodatlar butun ijtimoiy va

oilaviy maishiy hayotining barcha hujayrasiga singib ketgan, har kuni urf-odat odob va turmush tarzini ifodalaydigan qonun-qoidalar darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ayrim kishilar o'z e'tiqodi bilan dindor bo'lmasa ham o'zini musulmon deb hisoblaydi va barcha diniy (asli milliy tusga kirgan) odat va marosimlarga rioya qiladilar. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda diniy aqidalarga to'la rioya qiladigan va har kuni ibodatni ado etgan kishilar ham uchraydi. Ularning ko'pchiligi musulmonchilikning birinchi talabi-kalima keltirishni, ya'ni qur'on suralaridan ba'zi iboralarni aytishni biladilar, turmush tarziga aylantirilgan qonun-qoidalashtirilgan rasm-rusumlarga va marosimlarga rioya qilganlar, xolos.

Musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'on – Alloh taoloning payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vassallamga vahiy qilingan Yer yuzidagi butun bashariyatga yuborgan oxirgi diniy ko'rsatmalar to'plamidir. Rivoyatlarga ko'ra, 610-yildan boshlab umrinig oxirigacha payg'ambar Alloh nomidan Jabroil orqali eshitgan vahiy-larini ummatlariga yetkazib turgan. Uning og'zaki va yozma "xudo xaqiqati"ni Muhammad hayotligidayoq saqlab qolgan va hatto og'zaki, yoddan tartib qilgan kishi (qori)lar bo'lgan. Barcha payg'ambar vaxiylarini to'plab kitob tuzish Zayd ibn Sobitga topshirilgan, u dastavval ayrim varaqlarga ko'chirgan va birinchi xaliflar uchun qo'llanma sifatida "Suhur" nomli to'plam tuzgan. Bunday to'plamlardan yana to'rtasi ma'lum bo'lgan va ular bir-biridan farq qilgan. Mavjud to'plamlarni muayyan tartibga solish, nomuvofiqlikni bartaf etish maqsadida xalifa Usmon buyrug'i bilan yana Ibn sobitga topshirilgan. Yaxudiy va Xristian matnlarini ko'p eshitgan Muhammad vaxiylari qofiyali nasr shaklida bayon etilib, Qur'on oyatlarida o'z ifodasini topgan. Payg'ambar tirikligida to'plamga ehtiyoj bo'lmagan, chunki barcha savollarga o'zi javob bergan. Sobit to'plami rasmiy qabul qilinganidan so'ng bir necha nusxa ko'chirilgan. Xalifa Usmon Qur'on o'qiyotgan paytida qatl qilingan va uning qoni to'kilgan Qur'on nusxasi bizgacha yetib kelgan. Hatto Toshkentda dastlab

O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi fondida, hozir esa Movarounnahr musulmonlari diniy nazoratida Usmon "qoniga" bo'yalgan nusxasi mavjud.¹

Umuman olganda, XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15 – 16 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 – yilda bu ko'rsatkich Yer yuzidagi har besh kishidan birini tashkil qiladi. 2025 – yilda esa, dunyo aholisining 30 % ini Islomga e'tiqod qiluvchilarni tashkil etishi mumkin.

Misr, Quvayt, Saudiya Arabiston kabi bir qator mamlakatlarda islom davlat dini (yoki rasmiy din) sifatida tan olingan bo'lsa, ayrimlarida "islom" so'zi davlatning rasmiy nomi tarkibiga kiritilgan: Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi.

1969 –yilda tuzulgan Islom konferensiyasi tashkiloti (munazzamat al – mu'tamar al - islomiy)ga 57 mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1996 – yildan a'zodir. Bundan tashqari, xalqaro nohukumat musulmon tashkilotlari orasida Islom olami uyushmasi, Islom olami tashkiloti, Yevropa islom kengashi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ular, asosan, islomni targ'ib qilish va yoyish, diniy arboblarni xalqaro uchrashuvlarini tashkil qilish, turli mamlakatlardagi islom jamoalariga yordam berish bilan shug'ullanadilar.

Tojikistonning Tog'li Badaxshon xududida tarqalgan shialikning ismoiliylik oqimini xisobga olmaganda, mintaqamiz davlatlari aholisi asosan, suniylilikning xanafiylik mazxabiga e'tiqod qiladi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining milliy tarkibi to'g'risidagi 2002 – yil 1 – yanvar holatida bo'lgan ma'lumotlariga tayanib, mamlakatimiz aholisining taxminan 92 % idan ortiqrog'ini musulmonlar tashkil etadi, deyish mumkin.

Islom dinida asosan ikkita yo'nalish bo'lib, ular shialik va sunniylikni tashkil qiladi.

Shialik. Islomdagi ikki yo'nalishdan biri bo'lgan shialik, hokimyat masalasida musulmon jamoasida yuzaga kelgan ixtilof natijasida vujudga kelgan.

¹ Исо Жабборов Санжар Жабборов "Жахон динлар тарихи" Т.: "Ўзбекистон" 2002 158-162 б

“Shia” soʻzining toʻliq shakli “Shiʼat Ali” (“Ali tarafdorlar guruhi”) boʻlib, bu nom Ali ibn Abu Tolib (656 - 661) va uning avlodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan.

VII asr oxirlariga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil yoʻnalishga aylangan. Shialik avval faqat siyosiy harakat sifatida shakllangan boʻlsada, keyinchalik aqidaviy va fiqhiy masalalarda turli oʻziga xos jihatlar paydo boʻldi. Buning natijasida shialik ham mustaqil oqim sifatida faoliyat koʻrsata boshladi. Shialikda musulmon jamoasi yoki davlatida faqat Muhammad (sallollohu alayhu vasallam) avlodi (Ali va Fotimadan tarqalgan avlodlari) hukumdor boʻlishga ega deb hisoblanadi. Ularning taʼlimotiga koʻra, rahbar jamoa tomonidan saylanmay, rahbarlik meros sifatida oʻtadi. Imomlik paygʻambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanadi. Shialikka koʻra, paygʻambar vafotidan keyin xalifalikka haqli kishi Ali boʻlgan, Abu Bakr, Umar va Usmon esa bu huquqni undan zoʻrlilik bilan tortib olishgan deyiladi. Shialik tarafdorlari sunniylar kabi Qurʼonni ilohiy deb eʼtirof etadi, lekin ularning ayrim oʻta reaksiya ruhida vakillari halifalar davrida Qurʼonning ayrim qismlari tushurib qoldirilgan deb hisoblaydi. Shialik ilohiyotchilari Qurʼonning mazmunini majoziy sharxlash orqali oʻz taʼlimotini asoslaydi. Ular faqat Ali va uning avlodlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarini tan oladi. Bunday hadislardan iborat toʻplam tuzilib, u “Axbor” deb ataladi. Shialikda 8 ta aqidaga eʼtiqod qilinadi. Bular – tavxid (Allohning yagonaligini eʼtirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, yaʼni taqdir aqidasi), nubuvvat (paygʻambarlik), imomat (imomlik – imomlar hokimiyatini eʼtirof etish), Amru maʼruf (yaxshilikka buyurish), Nahiy munkar (yomonlikdan qaytish), tavallo (alloh doʻstlarini doʻst tutish), tabarro (Alloh dushmanlaridan uzoqlashish). Shialikda Ali va uning avlodlaridan iborat oʻn ikki imom hokimiyati tan olinadi. 874 – 878 yillar orasida 7 – 9 yoshida bedarak yoʻqolgan 12 – imom Muhammad al – Mahdiyni shialar “yashiringan” deb hisoblaydi, zamona oxir boʻlganda uning qaytib kelishini va adolat oʻrnatishini kutadi (imom Mahdiy, imomi oxiri zamon). Shialikda 12 imomlik Ali ibn Tolibdan boshlanib, uni Fotimadan boʻlgan oʻgʻillari Hasan va Husaynga oʻtadi va Muhammad al Mahdiyga borib tugaydi. Shuning uchun

shialikdagi isnoa`shariylar firqasi o`n ikki imomni e`titrof qiluvchilar, deb nomlangan. Isnoashariylarning ba`zilari Alini payg`ambardan afzal deb e`tiqod qiladigonlar hamda Ali va uning 11 avlodi insonlarga rizq berib turadi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Ali va uning avlodlari Payg`ambardan keyingi Allohning hujjatlaridir. Ularning buyruqlari, taqiqlari Payg`ambarning buyrug`i, taqiqidir, ularga itoat qilish – Payg`ambarga itoat qilishdir, ularga bo`ysunmaslik – Payg`ambarga isyon qilishdir. Ularning jasadlari nuroniyliklari sababli qabrlarda chirimaydi yoki ba`zilarning e`tiqodiga ko`ra osmonga ko`tariladi. Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani muqaddas hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan Shialar imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladi. Shiada bitta diniy huquqiy mazhab – ja`fariylik mavjud. Shialar imom Xusaynga motam tutadi, “shaxsey – vaxshey” deb nom olgan motam yurishlari o`tkazadi va hakazo. O`rta asrlarda shialar ichida ixtiloflar yuz bergan, natijada ko`p firqalar vujudga kelgan. Bundan zaydiylar, ismoiyilar, ibodiylar va boshqalar hozirda ham mavjud.

Shialiklar imomat masalada o`zaro bir necha firqalarga bo`linib ketganlar. Jumladan, rozifiylar (“inkor etuvchilar”, “tan olmaydiganlar”) Muhammaddan keyingi chaxoryor xalifalardan Abu Bakr va Umar ibn Xattob hokimyatini tan olmaydilar va payg`ambar o`zidan keyin Hazrati Alini voris qilib qoldirgan, deb da`vo qiladilar. Shuningdek, zaydiylik, isnoa`shariylik, ja`fariylik, ismoiylik, fotimiylik kabi guruhlarda ham imomat masalasida o`ziga xos talqinlar mavjud.

Shialik Eronda hukmron e`tiqod hisoblanadi. Iroq, Afg`oniston, Hindiston va Pokistonda ham shialar bor. Ozarbayjon va Tojikistonda (Pomirda ismoiliylar) ham aholining muayyan qismi shialikka e`tiqod qiladi. Samarqand va Buxaroda ham shialik jamoalari mavjud. Manbalarda Yer yuzida 97 milliondan ortiq musulmonlar shialikka mansubligi qayd qilinadiki, bu jami islomga e`tiqod qiluvchilarning taxminan 7.5 % ini tashkil etadi.¹

Sunniylik (arabcha sunna – odat, an`ana, hatti harakat tarzi) – islom dinidagi ikki asosiy yo`nalishidan biri va eng keng tarqalgani. Jahondagi barcha

¹ Фалсафа *энциклопедик лугат* Давлат илмий нашриёти Т.: 2010 йил 301 – 302 – б б

musulmonlarning taxminan 93 %izi sunniylikka mansub. Sunniylik tarafdorlari, asosan, Osiyo va Afrikada (Pokiston, Bangladesh, Hindiston, Indoneziya, Malaziya, Xitoy, Afg'oniston, Turkiya, Arabiston yarim oroli va Fors ko'rfazi atrofidagi arab mamlakatlarida, Suriya, Livan, Iordaniya, Shimoliy, Sharqiy va G'arbiy Afrika mamlakatlarida), Bolqon mamlakatlari, Kipr va AQSHda yashaydi.

Islom dastlabki davrda hech qanday yo'nalish, mazxab va oqimlarga bo'linmagan. VII asrning o'rtalarida turli siyosiy sabablarga ko'ra, musulmonlar safida bo'linish paydo bo'ldi. Avval shialar, keyin xorijiyalar musulmonlar ommasidan ajrab chiqdilar. Ular o'zining haqligini isbot qilish uchun o'z fikrini, yo'nalishini himoya qila boshladi, shu tariqa har guruhning o'ziga xos aqidasi shakllana bordi.

Sunniylik bo'yicha Abu Hanifa (Imomi A'zam)ning "al – Fiqh al – akbar " asari eng nodir ilmiy meros sanaladi. Bu ishda Abu Hasan Ash'ariy bilan Abu Mansur Moturidiylarning xizmatlari beqiyosdir. Sunniylik yo'nalishida shu ikki alloma asos solgan aqidaviy maktablar barcha sunniy ulamolar tomonidan e'tirof etilgan. Sunniylik tamoyillari, asosan, quyidagilardan iborat:

1. Mavjudotlarning haqiqat va mohiyati bor narsa bo'lib, ularni bilish mumkin. Bilish vositalari – beshta sezgi a'zolari, ilohiy manbalar va aql.
2. Olam qadim emas, balki qachondir Alloh tarafidan yaratilgan.
3. Butun borliqni yaratgan Allohning zoti bitta, u o'ziga xos azaliy va abadiy sifatlarga ega.
4. Zotiy sifatlari sanalmish ilm, qudrat, hayot, iroda, eshitish, ko'rish, gapirish Allohning azaliy va abadiy sifatlari. Uning zoti ham, sifatlari ham o'zi yaratgan mahluqot va mavjudodlarning sifatlariga also o'xshamaydi. Uning sifatlari nuqsonsiz, barkamoldir.
5. Allohning ismlari ko'p. Hadisda 99 ta go'zal ismlar zikr etilgan.
6. Allohning adolatli ekani. Hidoyat va zalolat yo'llarini ko'rsatib qo'ygach, adashgan va kufr yo'lini tanlaganlarni jazolashi adolat hisoblanadi.

7. Payg`ambarlarning hammasini barhaq deb tasdiq etish. Ularning adadi garchi ba`zi hadis va rivoyatlarda ko`rsatilgan bo`lsa – da, muayyan bir adad qat`iy deb hisoblanmagani maqul. Payg`ambarlarning birinchisi – Odam (alayhissalom), oxirgisi Muhammad (sallolohu alayhu vasallam).
8. Payg`ambarlarning mo`jizalarini haq deb e`tiqod qilish. Shuningdek, avliyolarning karomatlari ham haq va rostdir.
9. Islomning besh rukni – iymon kalimasi, namoz, ro`za, zakot, haj bir musulmon zimmasiga farzni ayn ekani. Farzlardan birortasini beuzr tark etsa yoki shar`an taqiqlangan ishlarga qo`l ura qattiq gunohkor bo`lishi, lekin kofir bo`lmasligini tasdiq etish.
10. Imon – Muhammad (sallolohu alayhu vasallam) Alloh taolo tomonidan keltirilgan barcha xabar va ma`lumotlarni haq va rost ekaniga til bilan iqror etib, dil bilan tasdiqlash deb bilish. Solih amallarni ko`p qilganda iymon nuri ko`payib, gunohkor ishlarni ko`p qilganda nuri ozayib turushini tasdiqlash.

Sunniylik bilan shialik o`rtasida hokimyat masalasida, ayrim diniy marosim va an`analarda birmuncha tafovutlar bor.¹

Suniylik islomdagi asosiy yo`nalishlardan biri bo`lib, unda xanafiylik, molikiylik, shofiylik, xanbalilik kabi mazxablar 2 ta aqidaviy ta`limot bor.

Hanafiylik. Ushbu mazhabning asoschisi Abu Hanifa Nu`mon ibn Sobit hisoblanib, u 699 – yilda Kufa shaxrida tu`gilib, 767 –yilda Bag`dodda vafot etgan. Shariat huquqlarini tizimga solgan. Masalalarini hal etishda avvalo Qur`oni Karim, so`ngra payg`ambarimiz sunnatlari – hadislari , undan keyin ijmoni`, oxirida esa qiyosni qo`llagan.²

Hanafiylikda Qur`on va sunnaga asoslanish bilan bir qatorda sahobalar so`zi, ijmo, qiyos, istehson, urf – odat ham keng qo`llanilganni va odamlarga yengilliklar yaratilgani bois Yer yuzi bo`ylab keng tarqalgan.

¹ Фалсафа *энциклопедик лугат* Давлат илмий нашриёти Т.: 2010 - йил 250 – б

“ Ijmo” – arabcha so`z bo`lib “yakdillik” degan manoni aglatadi.

² Абдулхай Абдурахмонов. Саодатга элтувчи билим . Моварауннахр Т.: 2005 й 286 - б

Hoji Xalifa o'zining "Kashfuz – zunun " asarida hanafiy mazxabi haqida quyidagi fikrni bildirgan: "To'rt mazhab ichida birinchi o'rinda turadigan va haqiqatga eng yaqin bo'lgani, Abu Hanifa asos solgan mazhabdir. Negaki, ushbu mazhab boshqalaridan ittifoqqa asoslangani, ustuvorligi, oliy iste'dod mahsuli bo'lgani, nazariyalarining kuchliligi va ilm al – ahkom sohasida to'g'ri fikrlar yuritilgani va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turiladi".

Abu Hanifa shariat hukumlarini chiqarishda o'ziga xos bir ilmiy uslubga asos soldi. Uning mohiyati Abu Hanifaning o'zi tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarda yaqqol ifodasini topgan: "Birinchidan, Qur'onga murojaat qilaman. Kerakli hukmni undan topa olmasam, Payg'ambar Sunnalariga va ul zotdan ishonarli roviylar orqali rivoyat qilingan sahih asarlarga (hadislarga) murojat etaman. Ulardan ham topolmasam, Payg'ambar Sunnalariga va ul zotdan ishonarli roviylar orqali rivoyat qilingan sahih asarlariga (hadislari)ga murojat etaman. So'ngra sahobalar so'zlaridan boshqalarining so'zlariga o'taman. Ibrohim Naha'iy, Sha'biy, Hasan Basriy va Siyrin kabi mujtahidlarga kelganda, men ham ular kabi ijtihod qilaman."

Rivoyatlardan Sahl ibn Mujohim: "Abu Hanifa har doim eng ishonchli rivoyatlarga tayangan, odamlarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga uringan. U qiyosga asoslanib ish olib boradi, qiyos noqulay bo'lgan istehsonga o'tardi, u orqali ham muammo o'z yechimini topmasa, xalq orasida amal bo'lgan urf – odatga murojat qilardi ", - deb ta'kidlagan edi.

Hanafiylik mazhabining shakllanishida Movoraunnahrlik, xususan, Samarqand va Buxoro ulamlarining xissasi katta bo'ldi. Bu mazhabning shakllanishida islomning Amudaryodan shimoldagi yerlarga kirib kelish jarayonlarining ta'sirini ko'rish mumkin. Islomni yangi qabul qilgan, ammo diniy amallarini to'la bajarmagan aholini musulmonlar qatoriga kiritish mumkinmi yoki yo'qmi? Ular jizya solig'ini to'laydami yoki yo'qmi? Bu kabi masalalarni hal qilish uchun, avvalambor, iymon tushunchasiga aniqlik kiritish lozim.

Islomdagi uch mazhab – hanbaliylik, moliylik, shofiylikda amal iymonning tarkibiga kiradi deyilsa, hanafiylik iymon kalimasini til bilan aytib, dil bilan

tasdiqlash iymonli bo`lishga kifoya deyiladi va bu ta`limot Qur`on oyatlari va hadislar asosida isbotlab beriladi. Bu esa, bir tomondan, fath qilingan yerlardagi mahalliy aholi tomonidan islomni qabul qilishni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan, jizya solig`idan ozod etardi. Shuning uchun ham, hanafiylik halifalik markazida jizyani qabul qiluvchi taraf tomondan qo`llab – quvvatlanmagan va unga qarshi boshqa mazhab ta`limotlari ilgari surildi.

Hanafiylik o`z davrida Iroq, Misr, Movoraunnahr, Huroson va Turkiya hududlarida, Abbosiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G`aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar, Ayubiylar, Mamluklar, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar davlatlari va Usmoniylar imperiyasida rasmiy mazhab sifatida qabul qilingan bo`lib, hozirgi kunda ham ko`plab musulmon o`lkalarida keng tarqalgan.

Bugungi kunda Yer yuzidagi jami musulmon – sunniylarning 47 % hanafiylik mazhabida e`tiqod qiladilar, deb hisoblanadi.¹

Shofiylik Mazkur mazhabning asoschisi Muhammad ibn Idris ibn al – Abbas ibn Usmon ibn Shofiiydir. U 767 – yili Falastin (G`azza)da tug`ulib, 820 – yilda Misrda vafot etgan.

Shofiylarning diniy – huquqiy ta`limoti ko`proq molikiylarga yaqin turadi. Jumladan, shofiiylikda qiyos va ra`y (Qur`on va sunnada bo`lmagan masalalar bo`yicha, o`z aqliga tayanib, hukm chiqarish)ni cheklab qo`llash kuzatiladi. Ular Qur`on va sunnaga yagona manba sifatida qarab, sunna Qur`onni to`ldiradi, xolos, uning o`zi hukm chiqarish uchun asos bo`lolmaydi, deb hisoblaydilar. Shuningdek, shofiylikda Madinalik rivoyatchilar aytgan hadis yoki ularning ijmolariga tayanib ish ko`rish ustuvor hisoblanadi. Hozirda shofiylik Misr, Indoneziya, Shimoliy Kavkaz musulmonlari orasida, Sharqiy Afrika mamlakatlarining ba`zilarida, qisman Suriya va janubiy arab sultonliklarida tarqalgan bo`lib, jami musulmon sunniylarining taxminan 27 % izi shu mazxabda e`tiqod qiladi, deb baholanadi.

Molikiylik. Ushbu mazxabga 713 – yilda Madinada tavallud topib, 795 – yilda vafot etgan Molik ibn Anas as – Asabixiy asos slogan. Molikiy mazxabi hozirda asosan Afrika qit`asi, jumladan, Marokash, Jazoir, Tunis, Sudan, Senegal,

¹ Фалсафа энциклопедик лугат Давлат илмий нашриёти Т.: 2010 - йил 280 – б

Jibuti, Surinam, Nigeriya, Niger va Liviya kabi davlatlarda yetakchi bo`lib kelmoqda.

Molikiylik tarafdorlari ilk islom davrida shakllangan fiqh me`yorlarini tan oladi, fiqhning asosiy manbai sifatida Qur`on va sunnaga tayanadi, faqat Madina shahrining olimlari yakdillik bilan ma`qullagan qoidalarini ijmo` deb hisoblaydi. Shu bilan birga, musulmonlarning umumiy manfaatlariga javob beruvchi shariat hukmlariga monelik qilmaydi. Hozirda jami musulmon – sunniylarning taxminan 17% izi shu mazxabda e`tiqod qiladi.

Hanbaliylik. Ushbu mazxab 780 – yilda Bag`dodda tug`ulib, shu yerda 855 – yilda vafot etgan Ahmad ibn Hanbalning huquqiy qarashlari va fatvolarini namoyon etadi. Hozirda Hanbaliylik faqat Saudiy Arabistonda rasman e`tirof etilgan bo`lib, boshqa mamlakatlarda uning tarafdorlari kam uchraydi.

Bu mazxab ko`proq hadislariga tayanishi bilan boshqalardan farq qiladi. Unda hadislar mohiyatiga yuqori o`rin beriladi, ularga “qanday” deb savol bermasdan to`g`ridan – to`g`ri ishonish va ergashish zarur hisoblanadi. Hozirda jami – musulmon sunniylarning 1.5 % izi shu mazxabda etiqod qiladi.

Sunniylikda fiqhiy maktablardan tashqari 2 ta aqidaviy ta`limot – Asha`riya va moturidiya mavjud bo`lib, ular asosan Allohning zoti va sifatleri, imon, taqdir, oily hokimyat (imomat) masalalaridan bir- biridan farq qiladi.¹

**Ash`ariya** – Abul Hasan Ali ibn Ismoil (873 – 935) asos solgan kalom ilmlaridan biri bo`lib, uning yirik vakillari qatorida Boqiloniy (vaf. 1013), Abdul Qohir Bag`dodiy (vaf. 1037) va Faxriddin Roziy (vaf. 1209) kabi olimlarni sanab o`tish mumkin.

Ash`ariya tarafdorlari moturidiylardan Allohni aql bilan tanish vojibligi, muqallid (tili va amalida musulmon ekanligini isbotlamagan, lekin o`zini musulmon hisoblaydigan kishi iymonning ozayib ko`payib turishi) kabi o`nlab aqidaviy masalalarda farq qiladi.

Ongni, ya`ni aqlni diniy an`anachilikdan (naql)dan ustun qo`yish va shariatni musulmonlar hayotini boshqaruvchi deb hisoblash ushbu ta`limotning

¹ Фалсафа энциклопедик лугат Давлат илмий нашриёти Т.: 2010 - йил 260 – б

asosini tashkil etadi. Taqlidni, ya'ni diniy aqidalarga ko'r – ko'rona ergashish, ularga tanqidiy yondashmasdan bo'ysunish, itoat etishni inkor qilish va hatto, muqallidlarni (taqlid qiluvchilarni) mo'minlar emas, deb hisoblash ham ushbu ta'limotga xos xususiyatlardandir.¹

Moturidiya – buyuk imom “Imom al – huda ” (“Hidoyat yo'li imomi”), “Imom al – mutakallimin” (“Mutakallimlar imomi”) nomlari bilan mashxur bo'lgan Abu Mansur Muhammad ibn Mahmaud al – Hanafiy al –Moturudiy Al – Samarqandiy (870 – 944) asos solgan ta'limotdir.

U Samarqandning Moturid qishlog'i (hozirgi Jomboy tumani)da tavallud topib, 944 – yili shu yerda vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza (“chokar” askar, “diza” qal'a yoki “Chohidigari janna”, ya'ni “jannat ul – boqiya” – Alloh rozi bo'lgan zotlar jannati) qabristoniga dafn etilgan.

Moturidiya ta'limotida sof din doirasidan chiqmagan holda aql – idrok va mantiqqa asoslangan ilm ulug'lanadi. Muta'ziliylikda iymonning shartlari 3 ta, ya'ni til bilan iqror, dil bilan tasdiq va amal bilan ijro etish, deyilsa, moturidiylikda bundan farqli ravishda iymonning shartlari 2 ta, ya'ni til bilan iqror va dil bilan tasdiqlash deb ta'rifli qilinadi. Shuningdek, moturidiylikda har bir insonning taqdiri Alloh tomonidan belgilab qo'yilganiga qaramay, u o'z xatti – harakatlari uchun javobgar, ya'ni imtihonlar uchun yaratilgan insonga dunyo sinovlaridan muvofaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topishi uchun keng imkoniyatlar berib qo'yilgan, u o'z faoliyatida erkin, Qur'oni Karim azaldan mavjud va boshqa narsalarga o'xshab yaratilmagan deb hisoblanadi.²

Islom dini asoslarini ko'rib chiqish bilan birga, undagi ruhiy olamga to'xtalib o'tamiz.

Tasavvuf – islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash. Bu atama va undan yasalgan mutasavvuf (so'fiy, “so'fiylik qiluvchi”) va so'fiy (tasavvuf izidan boruvchi) so'zlarining kelib chiqishi haqida turli taxminlar bor. Lekin hozir umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga ko'ra, tasavvuf – suvf “jun”, “po'stin”

¹ Фалсафа энциклопедик лугат Давлат илмий нашриёти Т.: 2010 - йил 235 – б

soʻzidan olingan. Ilgari zamonda tarki dunyo qilgan zohid, “oʻzini hudoga bagʻishlagan odam” odatda dagʻal jundan toʻqilgan kiyim yoki poʻstin kiyib yurgan.

Tasavvufga asos solgan tarki dunyochilik tasavvufiy kayfiyatlar islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo boʻladi. Har, qalay, Muhammad paygʻambar (s.a.v.)ning ayrim safdoshlari Abu Dardo, Abu Zar, Huzayfa (VII asrning 2-yarmida vafot etganlar) singarilarga ana shunday kayfiyat hos boʻlgan, deb hisoblaydilar. Biroq islomdagi zohidlik oqimi taxminan VIII asrning oʻrtalari – IX asrning boshlarida shakllana boshlagan deyish toʻgʻridir. Odatda, bu oqimga hadislarni toʻplovchi (muhaddis)lar orasidan chiqqanlar, sayyor baxshilar va nasixatgoʻy voizlar (qussos), qoriyu qurrola, jihod qatnashchilari (Vizantiya bilan chegara urushlari nazrda tutilmoqda), taqvodor hunarmandlar va savdogorlar, shuningdek islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi qoʻshilgan. Islomda zohidlik anʼanalari paydo boʻlishi va rivojlanishining sabalari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur gʻoyaviy va maʼnaviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuv, boshqa diniy falsafiy tizimlarning, birinchi navbatda xristianlikning taʼsirini koʻrsatish mumkin. Ilk soʻfiylik, aniqrogʻi zohidlik va tarki dunyo qilganlarning oʻziga xos xususiyati Qurʼon matni mazmuni ustida mushoxada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va paygʻambar hadislari koʻrsatmalariga qatʼiy roiya etish, koʻp marta qoʻshimcha namoz oʻqish, bedorlik va roʻza tutish, har qanday dunyoviy narsalardan yuz oʻgirish, kundalik hayotda taqvoli boʻlish, xususan ruhsat etilgan narsalar bilan man qilingan narsalarni qatʼiy ajratish, dunyoviy va harbiy hukumatlar va hamkorlik qilishdan voz kechish, oʻzini taqdiri ilohiyga topshirish (tavakkul) kabilar boʻlgan. Shunigndek, faqirlikni ulugʻlash, oxiratni oʻylash va tavba qilish kayfiyati, berganiga shukr qilish, azob uqubatlarga sabr toqatlikdan iborat edi. Soʻfiylik taʼlimoti inson qalbidagi eng nozik oʻzgarishlarni chuqur mulohaza bilan oʻrganish, odamlardagi botiniy tuygʻularga hamdard boʻlishga oʻrgatardi. Shu sabali ham tasavvuf asoschilaridan biri ruhshunos, “qalb va fikrlar” hamda insoniy niyatlar toʻgʻrisidagi “fan”ning

yaratuvchi Hasan al- Barsiy hisoblanishi bejiz emas. Basralik zohidlar – Hasan al – Basrining shogirdlari va izdoshlari Raboh ibn Amr, Robiya al- Adaviya, ad – Daroniy (VIII asr oxiri – IX asr boshi)larining da`vat va hudbalari kishida xudoga astoydil muhabbat, unga yaqinlashishga intilish tuyg`ularini paydo qildi. O`sha paytdan boshlab bu tuyg`ular so`fiylik g`oyasining o`ziga xos xususiyati va farqli belgisi bo`lib qoldi. X asr davomida tasavvuf nazariyasi va amaloyoti ustida faol ish olib borildi. Bir qancha so`fiylik maktablari paydo bo`ldi, ular orasida Basra maktablaridan tashqari Bag`dod va Xuroson maktablari ham bir muncha ta`sirga ega edi. Ularning vakillari inson va uning Xudoga munosabati qanday bo`lishi kerakligi haqidagi ta`limotni yaratdilar. Ruhiy kamolotga erishish yo`llarini ko`rsatib berdilar. Bu yo`l to`rt bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich – shariat. Bunga ko`ra tasavvuf ahli avvalo shariatning barcha talablariga bo`ysunishi kerak.

Shundan keyin **ikkinchi bosqich – tariqatga** ko`tarilish mumkin. Bunda muridlarga itoat etishi, o`z shaxsiy istaklaridan voz kechishi shart.

Bu bosqichdan o`tganlar yuqoriroq, **uchunchi bosqich ma`rifatga** ko`tariladilar, bunda koinotning birligi Xudoda mujassam bo`lishi, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligi aql bilan emas, qalb bilan anglab yetadi.

**To`rtinchi bosqich- haqiqat** hisoblanib, zohid “shaxs” sifatida tugab “haqiqat”ga, xudoga yetishadi, unga singib ketib abadiylikka erishadi. Bunga so`fiylar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar – sig`inish va ibodatlar orqali intiladilar. So`fiylik xudoga yetishish mumkinligi haqidagi fikrlari, shariat tomonidan buyurilgan amallarni bajarishdan bosh tortishlari tufayli goh-gohida ma`murlar ta`qibiga ham uchrab turadilar (at – Tustariy, Hakim at – Termiziy, an - Nuriy). Mashhur mutasavvuf Husayn Mansur Halloj “anal haq” (men haq, men xudo) degani uchun Bag`dodda xalifa tomonidan dorga osilgan. (921). O`z yurti Tabaristonda katta obro` qozongan Abu Yazid Bistomiy ham shakkoklikda ayblanib, qatl etilgan edi (873). Tasavvufga sunniylarning rahnamolari tomonidan bunday munosabatda bo`lish ularni ehtiyotkorlikka, murosali yo`llar izlashga majbur etdi. Ular Qur`on va sunnaga sodiqliklarni e`lon qilaverdilar, “tiyiqsiz”

safdoslarining keskin fikrlaridan uzoqlashib, o'z maslaklarini niqobladilar. Bag'dodlik al- Junayd (910-yil vafot etgan) ana shundy mavqeda turgan so'fiy edi. U "mo'tadil" deb atalgan so'fiylik an'anasini boshlab berdi. Bundy an'ana tarafdorlari keyin "keskin" yoki "estatik" so'fiylikka qarshi turdi. Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar: mayda savdogarlar, hunardmadlar va h.k.z. tashkil etgan edi. Ular ichida diniy ta'limot olganlar ko'p uchramasdi, shunday bo'lsada, o'zlarini "so'fiylik fani" nazariyotchilari deb bilardilar.

Tasavvufning ilk bosqichidayoq ma'naviy ustoz (shayx, murshid, pir) rahbarligida so'fiylik nazariyasi va amaliyotini egallash muhim hisoblangan, busiz boshlovchi so'fiy, (murid) aql-hushi va sog'ligini yo'qotishi mumkin edi. Shayxga butunlay bo'ysunish, barcha diniy va dunyoviy masalalarda uning obro'sini tan olish talabi uni muridlar ko'z o'ngida boshqa odamlardan ustun qilib qo'yar edi yirik so'fiy ustozlarni valiy deb atay boshladilar. Bunda shialarning imomlar to'g'risidagi ta'limotning ta'sirini ko'rish mumkin. Muridlar, ularga ergashib oddiy xalq bu odamlarning "adashmasligi", Alloh nazar qilganligi, karomat ko'rsatishga, payg'ambarga kelgan vahiyning "yashirin" ma'nosini izohlab berishga qodirligi, xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqida gapira boshladilar. Bularning hammasi xalq og'zaki ijodida, shuningdek, tasavvuf nazariyotchisi (Hakim at - Termiziy)ning asralarida o'z ifodasini topgan. So'fiy bilimlari va barakasining shayxdan muridga o'tishi uzoq ta'lim jarayonda amalga oshirilgan, saboq berish tugagach, shogird ustozdan so'fiylik jandasi (xirqa)ni olgan, bu o'ziga xos "shaxodat" vazifasini o'tagan va mustaqil targ'ibot olib borishi huquqini bergan. Odatda muridlar turli joylardan kelgan bo'lib, u yerda so'fiylik to'garaklari va manzillari (zoviya, xonaqoh) tashkil qilinib, o'zlari shogird tayyorlay boshlaganlar. Bularning hammasi tasavvufning tez tarqalishiga olib kelgan.

X asr oxiri – XI asr boshlarida tasavvufga oid kitoblar yozildi. Ular orasida at – Tusiyy (988 yil vafot etgan), al – Kalabodiy (990 yoki 995 – yili vafot atgan) Abu Tolib al – Malik (998 – yili yili vafot etgan), as – Sulamiy (1012 – yili vafot etgan) kabilarning bizgacha yetib asarlari bor. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarini tartibga soldilar, so'fiylik istiloxlarini tushuntirib berdilar. Tasavvufni

izchil islom ta'limoti bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olinishida G'azoliy, Abdulqodir Giloniy (Jiloniy)ning (1161 – yili vafot etgan) xizmati katta. XII asr o'rtalari – XIII asr boshlarida so'fiylar tashkil etgan zoviyalarda, xususan shaharlarda tasavvuf tariqat (suluk)lari vujudga kela boshladi. Bag'dodda paydo bo'lgan dastlabki suxravardiya va qodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi.¹

Tasavvufning o'zi kishilar orasida turli tortishuvlarga sabab bo'lgan kabi, bu so'zning lug'aviy ma'nosi ham ahli tasavvufning va boshqalarning orasida anchagina munozaralarga sabab bo'lgan. “Tasavvuf” so'zi qaysi o'zakdan olingani va undan ko'zlangan ma'no haqida bir qancha fikr mulohazalar aytilgan. Binobarin, (“so'fiy”) so'zi haqida ham huddi mana shu holatni ko'ramiz. Zotan bu ikki so'z va ma'no bir-biridan ajralmas narsalardir. “So'fiy” va “tasavvuf” so'zlarining ma'nolari haqidagi tortishuv ularning islohiy ma'nosi borasida ham davom etadi.

Muhammad Yusuf Muso tahqiq qilgan “Al-aqiyda vash-shariy'a fil Islom” kitobida zikr qilinishicha, Nikolson hijriy beshinchi asrgacha bitilgan asarlardan tasavvufning yetmish beshta ta'rifini topgan.

Abul Qohir al-Bag'dodiy ishonchli tasavvuf qutblarning ta'limotlaridan minga yaqin ta'rifini topgan.

“Qavoiydut-tasavvuf” shayxi Ahmad Zarruq rahlotullohi allayhi ikki mingga yaqin ta'rifini keltirgan. Ularning hammasi Alloh taologa sodiq tavajjuh qilish ma'nosidadir

Ahli tasavvufning o'zlari uning ta'rifidagi bunday xilma xillikni yaxshilik alomati deb biladilar. Zamondosh tariqat shayxlaridan Misrdagi “Ashiyrai Muhammadiya” tariqatining boshlig'i, fazilati shayx Muhammad Zakiy Ibrohim hazratlari bu haqida quyidagilarni aytadilar:

“Tasavvuf ta'rifidagi ixtilofga kelsak, u kishining suluk darajadagi martabalariga oiddir. Ularning har biri o'z asosini o'z maqomida tarjima qilgandir. Bu bilan o'zidan boshqaning maqomga qarshi chiqqan hisoblanmaydi, chunki

¹ Islom ensiklopediyasi 223 -225- bet

haqiqat bittadir. Bu zinhor, bog`da bundan boshqa daraxt yo`q degan emas. Ta`riflar qanchalik ixtilofli bo`lmasin, ularning barchasi poklanish va taqvo martabasiga yetib boradi”.

Tasavvuf haqidagi ta`riflardan namunalar:

- 1. Shar`iy odoblar ila zohirda turib, uning hukmini botinda ko`rish. Shuningdek, shar`iy odoblar ila botindan turib, uning hukmini zohirda ko`rishdir. Shunda odoblanuvchi uchun ikki hukm ila kamol hosil bo`lur.**
- 2. U bir mazhab bo`lib, maqsadi qalbni Allohdan boshqadan xoli qilish, Xoliq ila ibodat qilish hamda Undan boshqasidan ajralish ila ruhni qudsiyat olamiga olib chiqishdir.**
- 3. Tasavvuf nafsni axloqiy jihatdan taraqqiy ettiradigan hayotiy falsafa bo`lib, u muayyan amaliy rioziyot vositasida haqiqatga aylanadi va ba`zi vaqtlarda boy haqiqatga singish hissiga olib boradi. Shuningdek, undan zavq va aql ila ma`rifat hosil qilishga olib boradi.**
- 4. Tasavvuf bir ilm bo`lib, u ila nafsning ahvoli - yaxshi va yomoni, uning yomonini poklash yo`li, yaxshisini ziynatlash yo`li, Alloh taolaga tomon yurish kayfiyati va Unga tomon qochish uslubi o`rganiladi. Ya`ni, O`zidan boshqadan panoh so`ramaslik.**
- 5. Tasavvuf - har bir yomondan xoli bo`lish, har bir yaxshidan ibrat olish ila qurbatga va visolga erishishdir. U, insonni qayta bino qilish va uni har bir fikr, so`z, ish, niyatdan Robbi ila bog`lashdir.**

Yuqorida zikr etilgan ta`riflar bilan bir qatorda “tasavvuf” so`zi va unga bog`liq lafzlar qadimgi lug`at ilmi ustalari tomonidan sinchikovlik bilan o`rganilganligini ham eslab o`tmog`imiz lozim.

Jumladan, “Al-mo`jam al -vasiyat” nomli lug`at kitobida bu haqda quyidagilar keltirgan: “Savvafa fulonan” - “falonchi so`fiylardan sanadi”, degani. “Tasavvuf fulonun” - “falonchi so`fiy bo`pdi” degani.

Tasavvuf suluk tarzi bo`lib, uning asosi nafs va ruh oliy bo`lishi uchun sodda hayot va fazilatlar ila ziynatlanib yashamoqda.

Tasavvuf ilmi - soʻfiylar eʼtiqod qiladigan narsalar va oʻz jamoalarida hamda yolgʻiz qolganlarida ushlaydigan odoblaridir. Soʻfiy-tasavvuf yoʻliga ergashgan odamdir.

Endi soʻfiyning taʼrifida kelgan taʼriflardan eng mashxurlaridan keltiraylik.

Shayx Shoxobuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad as-Suhraviydir rahmaullohi alayhi soʻfiyni quyidagicha taʼriflaydilar:

“Soʻfiy har bir narsani oʻz joyiga qoʻyadigan, vaqtlar va ishlarni ilm ila tadbir qiladigan, xalqni oʻz maqomiga qoʻyadigan, berkitilishi lozim boʻlishi narsani berkitadigan, ochilishi lozim boʻlgan narsani ochadigan va ishlarni huzuri qalb ila, rioyati sidqi ixlos ila oʻz oʻrnida ado etadigon shaxsdir”.

Kishilar oʻrtasida “Tasavvuf qayerdan kelib chiqqan ?” degan savolga javob berishda ham juda koʻp qarashlar mavjud. Bu borada tasavvufning tarixini oʻrgangan toifalar turli farazlarni aytganlar.

1. Baʼzi sharqshunoslar: tasavvuf, aslida, yunoncha “sufis” soʻzidan olingan musulmonlar yunon madaniyatidan koʻp narsalarni, jumladan, tasavvufni ham olingan deydilar.

Muhammad (s.a.v.) va siddiqlar – hulafoi roshidinlar, ilk sahobalar yoʻlidan ogʻishmay borgan , parhezkor ota taqvodor , tarki dunyo qilgan zohidlikka yuz borgan Allohning aziz bandalari – “soʻfiy”, ular yurgan yoʻlga esa tasavvuf deyila boshlagan. Tasavvuf soʻfilikning diniy falsafiy talimoti boʻlib uning turli yoʻli “tariqat”. “suluk” deb ataladi. “Sulukni” turkiy maʼnosi boʻlib , Soʻfiylarni hayot kechirish manosi ifodalaydi.¹

Soʻfiy atamasi kelib chiqishi haqida 8 xil fikr mavjud:

Birinchisi, baʼzilar bu soʻz “saf” soʻzidan kelib chiqqan, chunki bunday musulmonlar ilohiy yoʻlga kirganlarning birinchi safida turuvchilardir deganlar.

Ikkinchi, boshqa birlari esa “soʻfiy” soʻzi “suffa” soʻzidan hosil boʻlgan, chunki suffa ahli paygʻambarimiz hayotlik chogʻlaridayoq tarki dunyo qilgan

taqvodor dindorlar bo`lib, so`fiylar shularga taqlid qilganliklari uchun shunday nom kelib chiqqan, deb tushuntirganlar.

Uchunchi guruh kishilar “so`fiy” so`zi “safo” so`zidan kelib chiqqan, chunki bu toifa kishilarning qalbi sidqu safo quyoshidek porlab turadi deganlar.

**To`rchinchi**, ba`zilar so`fiy “sufuh” so`zidan hosil bo`lgan, chunki “sufuh” biron bir narsaning xulosasi bo`lganligi sabali ularni so`fiy deb aytganlar.

Beshinchisi, ayrim ulamolar so`fiy so`zi “sof” ya`ni soflik, poklik, toza, ruhiy kamolot mazmuniga ega deb tushuntirganlar.

Oltinchisi, ba`zilar bu so`z yunoncha “sofos” so`zidan olingan deganlar.

Yettinchisi, olimlarning ba`zilari esa yunoncha “suf”, faylasuf so`zining oxiriga qismidan olingan degan mulohaza ham bildirganlar.

Sakkizinchisi, aksariyat olim va ulamolar so`fiy so`zi arabcha suf so`zidan hosil bo`lgan, chunki bu so`zning lug`aviy ma`nosi jun va jundan to`qilgan mato ma`nosini beradi deb aytganlar.¹

2. Boshqa bir toifalar: musulmonlar tasavvufni masiyhiylikdan olganlar, deydilar.

Ammo, bu gapning ham ishonchli dalili yo`q, bu gapning ham aytganlar ba`zi bir zohiriy narsalardan o`zlaricha xulosa chiqarib aytganlar xolos.

3. Uchunchi bir guruh: musulmonlarga tasavvuf majusiylar va buddachilardan kirib kelgan, deydilar. Ular o`zlarining bu fikrlariga avvalgiga o`xshab quruq taxminlarni va ba`zi bir ko`zga ko`ringan tasavvuf namoyondalarining asli forsdan bo`lib, bobolari majusiy bo`lganini dalil qiladilar.

Ularga : “Bir kishining asliga qarab katta bir ilm yoki mazxabga baho berilmayda, voqeilikka qarash kerak”, deyiladi. Chunki barcha islomiy ilmlar va mazxablarning ko`zga ko`ringan namoyondalari arab bo`lmagan turli xalqlarning vakillaridir.

4. Tasavvufga qarshi bo`lganlar: ”Bu narsa hijriy uchunchi asrdan keyin chiqqan bid`at, avvalgi davrda mutlaqo bo`lmagan, Qur`oni Karimda ham, hadisi sharifda ham “tasavvuf” so`zi biror marta zikr qilinmagan”, deydilar.

¹ Абдулхай Абдурахмонов. Саодатга элтувчи билим . Моварауннахр Т.: 2005 й 323- б

Bunday e'tirozlarga tasavvuf tarafdorlari batafsil javob beradilar. Qur'oni Karimda ham, hadisi sharifida ham, "tasavvuf" so'zi biror marta zikr qilinmagani uning islomiy ilm emasligiga dalil bo'la olmaydi. Chunki, Qur'oni Karim bilan hadisi sharif lug'at qomusi ham, ilmlarining ta'rifini keltiradigan ta'rifnoma ham emas. Qolaversa, boshqa islomiy ilmlarining nomi ham bu ikki manbalarda kelmagan. Qur'on va sunnatda nomi kelmagan narsani inkor qilaversak, juda ko'p narsadan voz kechishimizga to'g'ri keladi.

Birinchi davrda ayni "tasavvuf" so'zi ishlatilmagan bo'lsa ham, uning ma'nosi bo'lgan. "Tasavvuf hijriy uchunchi asrdan keyin chiqqan" degan gap mutlaqo noto'g'ri. Balki bu so'zni katta tobe'inlarning o'zlari ishlatganlar.

Misol uchun, tobe'inlarning¹ eng kattalaridan bo'lgan, ko'plab sahobiyalarni ko'rgan imom Hasan Basriydan qilingan rivoyatda "Tavofda bir so'fiyni uchratib qoldim. Unga bir narsa bergan edim, qabul qilmadi va menda to'rt chaqa bor, ana o'sha kifoya qiladi, dedi", deyilgan.

Shuningdek, katta tobe'inlardan bo'lgan Sufyoniy Savriy rahmatillohi alayhidan "Agar Abu Hoshim So'fiy bo'lmaganida, riyoning faqiq ma'nosini bilmagan bo'lardim" deganlari rivoyat qilinadi. Bundan "tasavvuf" so'zi va ma'nosi hijriy birinchi asrdayoq ma'lum va mashxur bo'lgani bilinadi.

5. Ahli tasavvuf va ularning tarafdorlari: tasavvuf boshqa barcha islomiy ilmlar qatori Qur'on va Sunnatdan olingandir, deydilar va bunga ko'plab oyat hamda hadislarini dalil qilib keltiradilar.

Qarshi taraf esa, tasavvuf tarafdorlari: tasavvuf ahlining Qur'on va Sunnatga xilof fikrlari, ishlari tasarruflarini misol keltirib, bu gapni rad etadilar.

Shunda tasavvuf tarafdorlari turli omillarga ko'ra bu narsada ham ba'zi shaxslar tomonidan xatolar bo'lgani hamda Qur'on va Sunnatga xilof ish qilganlar, garchi o'zlarini tasavvufga mansub desalar ham, aslida, tasavvufdan yiroq ekanliklarini aytadilar. Ular islom aqidasi va shariatiga xilof bo'lgan har bir narsa tasavvufga mutlaqo begona ekanini ta'kidlaydilar.

Tobe'inlar – (arabcha "qaram", "itoat") islom tariqatida sahobalardan keyin ularning ishlarini davom ettirgan ilohiyotchilar qatlam.

Bu haqda zamondoshimiz, ahli tasavvuf namoyondalaridan, Misrdagi “Ashiyrai Muhammadiya” tariqati shayxi Muhammad Zakiy Ibrohim janoblari quyidagilarni aytadilar:

“Ushbu aqida va shariatga begona boʻlgan falsafalarning ahli qibla tasavvufga hech aloqalari yoʻq. Ularni bizga qarshi hujjat qilib keltirish haqni botil ila aralashtirishdir. Birovning gunohi tufayli qarash ila boshqani ayblash pastlashlikdir. Mazkur falsafiy qarash ila mashxur boʻlganlar va tasavvufga nisbat berilganlar oʻntadan oshmaydilar. Ularning falsafiy eʼtiqod qiluvchilar qolmadi”.

Shu yerga kelganda muhaqqiq ulamolar ham, ahli tasavvufning oʻzi ham tasavvufni ikkiga - Sunniy tasavvuf va falsafiy tasavvufga taqsimlashlarini yaxshilab bilib olmogʻ lozim.

Falsafiy tasavvufni barcha –tasavvufga qarshilar ham, ahli tasavvufning oʻzlari ham qoralaydilar va inkor qiladilar. Ammo Qurʼon va Sunnatga asoslangan Sunniy tasavvufni hamma qoʻllaydi.

Falsafiy tasavvuf keyinchalik paydo boʻlib, turli falsafalar taʼsiri ostida Islomga begona boʻlgan fikr va eʼtiqodlarni olgʻa surgan. Bunday tasavvufning koʻzga koʻringan namoyondalari Muhiddin ibn Arabiy, Mansur Halloj va boshqalar boʻlib, ular vaxdatul vujud, hulul va ittihad kabi falsafalarni oʻrtaga tashlab, katta ixtiloflarga sabab boʻlganlar. Bu yoʻnalishni hamma tanqid qilgan va hozirda u oʻz izdoshlariga ega emas.

Tasavvufning vazifalari: Tasavvufning vazifalari koʻp boʻlib, ulardan baʼzilari haqida toʻxtalib oʻtamiz.

1. Muhaqqiq ulamolar tasavvufni “botiniy fiqh”, yaʼni “ichki fiqh” deyilar.

Bunday fiqh ikki qismga : zohiriy – “tashqi” va botiniy – “ichki”ga boʻlinishi kelib chiqadi.

Ulamolarimiz shariat ilmlarini “zohiriy fiqh” deb ataydilar yoki oddiygina “fiqh ilmi” deyish bilan kifoyalanadilar. Binobarin, zohiriy fiqh sharʼiy amallarning tashqi tomoniga ahamiyat beradi.

Misol uchun, tahorat, g`usl, namoz, ro`za, zakot va haj kabi ibodatlarining zohiriy masalalarining oyat va hadislar hamda ijmo` va qiyos asosida zohiriy fiqh ilmi – shariat bayon qilib beradi.

Huddi o`sha ibodatlarni ado etish jarayonida qalbni qandoq tutish kerakligini, xushu` va xuzu`ni qanday ado etish lozim ekanini oyat va hadislar hamda ijmo` qiyos asosida botiniy fiqh ilmi - tariqat bayon qilib beradi.

Yana ham tushunarli bo`lishi uchun misollar keltiramiz. Tahoratni farz, sunnati va mustahlari nimalar ekanligini, bu ibodatni ado etish chog`ida turli a`zolarini qandoq tutish va yuvilishi lozim bo`lgan a`zolarini qancha hamda qandoq yuvish kerakligini zohiriy fiqh ilmi – shariat bayon qilib beradi.

Tahoratdan ta`lim berayotgan faqih olim: qo`lni yaxshilab uch marta yuviladi, panjalarni bir-birining orasiga kiritib tahlil qilish lozim, yuzni yuvganda undoq qilish kerak, oyoqni yuvganda bundoq qilish kerak, deb tashqi hukumni bayon qilib beradi.

Tahoratdan ta`lim berayotgan tasavvuf olimi esa, bu ibodatni qilishni boshlaganda va uni ado etish jarayonida qalbni qanday tutishni o`rgatadi. Har bir a`zoni yuvganda qalbdan nimalar o`tishi kerakligini maydalab bayon qiladi.

Namoz necha vaqt farz, vojib yoki sunnat? Bomdodning necha rakati farzu, necha rakati sunnat? Namozda turganda, ruku` yoki sajda qilinganda gavdani qandoq tutmoq lozim? Qa`dada o`tirganda gavda, qo`l va oyoqlar qay shaklda bo`lishi kerak? Va shu kabi ko`plab masalalarni zohiriy fiqh ilmi bayon qilib beradi.

Namozdagi ruhiy holatni, qalbni qanday tutishni xushu` va xuzu`ni – hamma – hammasini botiniy fiqh ilmi bayon qiladi.

2. Tassavvufning aqoid ilmiga ham yaqindan bog`liqligi bor.

Ma`lumki, aqoid ilmi e`tiqod masalalarini muolaja qilib, odatda, bu boradagi bosh masalalar haqida bahs yuritib, har bir masala bo`yicha oyat va hadislardan dalillar keltiradi. Ammo bu ilmda his-tuyg`u, zavqu shavq, qalbiy masalalar bayoniga ko`p ahamiyat berilmaydi. Tasavvuf esa, aynan shu masalarga katta e`tibor beradi.

Misol uchun, aqoid ilmi Alloh taolo eshitish, ko`rish, gapirish, qudrat, hayot, ilm kabi sifatlarga ega ekanligi haqida bahs yuritadi. Ammo, banda vujudi bilan qandoq his qilishini tasavvuf ilmi o`rgatadi.

Aqoid kitoblarida iymon haqida, kufr va uning turli ko`rinishlari haqida, shuningdek, nifoq va uning belgilari haqida bahs yuritiladi.

Tasavvuf kitoblarida esa iymonni amaliy ravishdagi haqiqatga aylantirish, kufrdan chetlanish va nifoqdan qutilish yo`llari batafsil bayon qilinadi.

3.Tasavvuf Qur`on va Sunnat haqiqatiga yetib, unga butun vujud bilan amal qilishni o`rgatadi.

Albatta, oyat va hadislarni o`qish boshqa, uqish boshqa. Ularning uqqandan keyin zohiriy amal qilish boshqa, butun vujudni – jismi, qalbi va ruhi bilan amal qilish boshqa.

Tasavvuf aynan shu narsani, yani Qur`on va Sunnatdan kelgan ma`nolarini tushunish bilan kifoyalanib qolmay, ularning mohiyatini o`rgatadi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, muftaxid ulamolarimiz Qur`on va sunnatdagi ma`nolarini bizlarga to`g`ri tushuntirib bergan bo`lsalar, muhaqqiq so`fiylarimiz o`sha ma`nolarining ruhiyatini anglatib berganlar.

4.Tasavvuf “qalb”, “ruh”, “aql” va “nafs” kabi ma`nolarini alohida ehtirom ila tushuntiradi va ularning har biriga musulmon banda qanday munosabatda bo`lishi zarurligini bayon qilib, o`sha bayonning tadbiiq qilinishini ham yo`lga qo`yadi.

Tasavvufning nomlaridan biri “ruhiy tarbiya” bo`lgani ham shundan. Tasavvufda “qalb”, “ruh”, “aql” va “nafs” deb ataladigan ma`nolarini aniiq bilib olish katta ahamiyat kasb etadi. Bu narsalarning har birining haqiqatini anglab yetish va ularni bir-biridan ajratib olish ham oson ish emas.

Ushbu to`rt narsa haqida qisqacha ma`lumot bilib olishimiz tasavvufni yaxshiroq anglashimizga yordam beradi.

1.Qalb.

“Qalb” lafzi ikki xil ma`noda ishlatiladi:

Birinchisi – insonning chap ko`kragiga joylashgan, qonus shaklidagi maxsus jism. Uni bizning tilimizda “yurak” deyiladi. Tasavvufda “qalb” deyilganda o`sha a`zo ko`zda tutilmaydi.

Ikkinchisi – Robboniy, ruhoniy va latifiy narsa bo`lib, uning avvalgi qalbga bog`liqligi mavjud. Ularning orasidagi aloqa huddi sifatning sifatalangan narsa bilan bo`lgan aloqasiga o`xshaydi. Ana o`sha latifiy narsa insonning haqiqatidir. Idrok, bilim va ma`rifat o`shandandir. Xitob, itob, iqob, va talab ham o`shangadir.

Tasavvufda “qalb” deyilganda mazkur latifiy narsa anglanadi. U haqda so`z borganda uning sifati va ahvoli haqidagina gap boradi, haqiqati haqida so`z yuritilmaydi.

2. Ruh.

Bu lafz ham xuddi “qalb” lafzi kabi ikki xil ma`noni ifoda etadi.

Birinchisi – jismoniy qalb ichidagi latifiy jism bo`lib, asablar orqali badanning barcha taraflariga tarqaladi. Tabiblar ruh va unga bog`liq narsalar haqida so`z yuritganlarida aynan ana o`sha ruh haqida gapirgan bo`ladilar.

Mazkur ruh bilan tasavvufning aloqasi yo`q.

Tasavvufda muolaja qilinadigan ruh biluvchi latifiy narsadir. Uning haqiqatini Alloh taolodan o`zga hech kim bilmaydi. Ruh, uning mohiyati va unga tegishli boshqa narsalar Alloh taoloning ishi, bandaning ishi emas. Banda qanchalik maqtanmasin, ilmi ozdir.

Insonning hamma narsasi cheklangan. Jumladan, aqli, idroki ham mahduddir. U aqli, idroki doirasidagi ishlar ila shug`ullanib, undan tashqaridagi narsalar xususida behuda bosh qotirmaslik kerak. Bular qatoriga ruh masalasi ham kiradi. Hozirgacha insonning ruh haqida biror narsa bilish uchun qilgan barcha harakatlari behuda ketdi. Ruh haqidagi hech narsa bila olmadi. Inson ruh haqida bilgan birdan-bir narsa Alloh taolo yuborgan vahiy, xolos.

3. Nafs Bu lafs ham bir necha ma`nolarida ishlatiladi. Nafs- moddiy va manaviy ma`nolarida bo`lib, biri ikkinchisi bilan chambarchas bog`liqlikdir.

Moddiy ma`noda nafs tanadagi latifiy bir jism bo`lib, tananing barcha moddiy ehtiyojlarini nazorat qilib, boshqarib turadi. Uning bu ishidagi asosiy

quroli talab g`azab va shahvatdir. Bu narsalar meyorida bo`lganda, nafs xotirjam hisoblanadi va u o`zidan talab etilgan vazifani to`g`ri bajarayotgan bo`ladi.

Nafsning talabi, g`azabi va shaxvati meyoridan oshib ketsa, u yomonlikka undovchi nafs hisoblanadi va malomat qiladi.

Ma`naviy ma`noda nafs aqlga va ruhga oid barcha ehtiyojlarini nazorat qilib, boshqarib turuvchi omildir. Bu nafs insonning shaxsiyati, “men”ligidir. Shariatning talab va takliflari mana shu nafsga qaratilgandir.

Ayni paytda, moddiy nafs ma`naviy nafsga tobe` bo`lib, bu ikkisi birga insonning borlig`ini tashkil qiladi.

Tasavvufda “nafs” lafzi ikki ma`noda ishlatiladi.

Birinchi – insondagi g`azab va shahvat quvvatini jamlovchi ma`nodir. Ha, ahli tasavvuf “nafs” deganda ko`proq yomon sifatlarini o`zida jamlovchi narsani ko`zda tutadilar. Shuning uchun ham, ularning istilohida “nafsga qarshi muhojada qilish”, “uni sindirish” kabi iboralar tez-tez uchrab turadi.

Bunday nafsning o`ziga xos ismi bo`lib, uni “an-nafsul ammoratul bissu`i” – “yomonlikka amr qiluvchi nafs” deb ataladi.

Ikkinchisi avval zikr qilingan ruh, ya`ni insondagi latifiy jism bo`lib, u insonning joni va o`zini anglatadi. U holatga qarab turli vasflarga ega bo`ladi.

Bunday nafs shahvatlar ila kurashda g`olib bo`lib, sokinlik kasb qilgan nafsdur. U “mutmainna” – “xotirjam nafs” deb ataladi.

Tasavvuf maktabining mashhur namoyondasi, Islom olamida katta hurmatga ega bo`lgan olim imom Hasan Basriy: “Yaxshi odam doimo o`z nafsini malomat qilib turadi, fojir odam nafsinni itob qilmay yuraveradi”, deganlar.

4. **Aql.** Bu lafs ham turli ma`nolarda ishlatiladigan lafslardan. Tasavvufda o`sha ma`nolarda ikkitasi ishlatiladi.

Birinchi – narsalarning haqiqatini idrok qilib bo`lib, ilmning suratidan iborat bo`ladi. Ikkinchisi – ilmlarni idrok etuvchi bilmdir.

5.Tasavvuf tahziybi axloqni – axloqni sayqallashni yo`lga qo`yadi.

Bunday mo`min – musulmon bandaning axloqiy Qur`oni Karim va hadisi sharif ta`limotlari asosida qandoq bo`lishi kerakligi o`rgatiladi va uni tadbiq qilish yo`lga qo`yiladi. Zotan, bu amal har bir mo`min musulmon uchun farzdir. O`sha farz amalni yo`lga qo`yish aynan tasavvuf orqali joriy etiladi.

6.Tasavvuf tazkiyatun – nafsni – nafsni poklashni ham yo`lga qo`yadi.

Bu ham har bir mo`min uchun farz amal bo`lib, uning haqiqtiga va tatboqoti tasavvuf orqali bo`ladi.

7.Tasavvuf tavba, istig`for, duo, zuhd, taqvo, vara` va shunga o`xshash ma`nolarning haqiqatini anlab yetishga yordam beradi va ularni hayotga qandoq tatbiq qilish bo`yicha darslar va ko`rgazmali tajribalar olib boradi¹

Xulosa qilib aytish mumkinki, tasavvuf shiati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi oliy janob fazilatlarini o`zida mujassam etib, nafsni poklash yo`li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat. Tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakllangan. Mashhurlari – tayfuriya junaydiya, hakimiya, qodiriya, yassaviya, malomatiylar, rifoia, kubroviylik, suxravardiylik, chishtiya, akbariya, shoziliya, bektoriya, mavlaviya, naqshbandiya, sanusiya tariqatlaridir. Mustaqillik yillari mamlakatimizda tasavvuf tariqatlarini o`rganishga, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoiqlarning maqbaralarini qayta qurish va ta`mirlashga ahamiyat berilmoqda. Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduholiq G`ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovandiy Tohur, va boshqa ko`plab tasavvuf tariqatlariga mansub piru komillarning hayot va ijodlarini chuqur o`rganish, qoldirgan asarlaridan xalqimizni bahramand etish borasida muayyan ishlar qilindi.

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф “Тасаввув хакида тасаввур” Т.: “Шарк” 29 36, 64 – 70 66

II bob. Pirlar nomi bilan atalgan tariqatlar

Tasavvuf - insoniyatga g'amxo'rlik qilib, rahmdillik va muhabbat bilan xizmat qilish, samimiyat, ixlos va xikmatdir. Ko'ngil pokligi, ma'rifat yuksakligi va amali solihlik tasavvuf talabi bo'lib toshga gul, zaxarga asal, ko'zlarga nur, ko'ngillarga surur go'zal bir holatdir. Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy ahloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishi bu talimotning asosiy g'oyalari. Shu bois tasavvuf chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan omuhta bo'lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo'l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko'ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab keldi. Xalqimiz so'fiy darveshlari hurmat – ehtirom orqali Alloh taolaga, Uning insonni ulug'lagan qudrati va fayzu futuhiga e'tiqodlarini izhor etganlar. Shayxlarning karomatlari, so'zlari va siyratu suratida qabul qilingan. Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy rahbarlari, ruhoniylar murabbiy sifatida maydanga chiqib, payg'ambar faoliyati, holatlarini davom ettirishga jazm etganlar.

Shu bois tasavvufning tarixiy taraqqiyoti, nazariy jihatlarini o'rganish barobarida, yirik shayxlar, avliyolar faoliyatini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Voqean, nazariy qarashlarning o'zi ham shayxlarning so'zi va holatlari, asarlari, nasixatlari, ular haqidagi xotiralar va hikoyatlari o'rganish zahirida umumlashtirilgan.¹

Inson ilk marta o'z atrofini o'rganib, hayot va koinot sirlarini bilib ilishga urinish bilan bilan, ilk irfoniylar taxayyular va tasavvurlar ham yuzaga kelgan ekan. Ilk irfoniylar tasavvurlar, mifologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bo'lsa ham, inson taffakuri taraqqiyoti bilan birga rivojlandi va falsafiy tafakkurlar taraqqiyoti bilan birga rivojlandi va falsafiy tafakkurlar bilan yo'g'rilib ketib o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'ldi.

Qadimgi Hind va Yunon falsafasida xilma xil irfoniylar fikrlari ayniqsa "vaxdat"ga doir ta'limotlar yuzaga kelgan edi. Islom tasavvufi islomiy

¹ Хамиджон Хомидий Тасаввуф алломалари Т.: Шарк 2009 3 - б

manbalardan tashqari, Yunon falsafiy ta'limoti, ayniqsa Aflotun qarashlaridan foydalangan bo'lsa ham, tadqiqodchilar fikriga ko'ra Aflotun va neoplatonizm, shuningdek hind irfoniy yo'nalishlari, unga o'z ta'sirini o'tkazgan. Fransiyalik tasavvufshunos olim Roje Arland yozishicha, undagi ko'p mavzu va materiallar, islom mazxabi ta'limoti va an'analari bilan chuqur qo'shilib ketgan.

Tasavvuf islom olamida keng ko'lamda tarqalib, nafaqat xalqning amaliy hayotida, balki tafakkur, adabiyot va badiiy ijod sohasida ham, o'zidan chuqur ta'sir va iz qoldirgan.

Tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri komil inson tushunchasi bo'lib, har jihatdan yetuk kishi, Ahloqiy jihatdan poklikka erishishgan borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa yetishgan (yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limoga ko'ra, Alloh komil insinda o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek ko'rib turadi. U borliqning bir – biriga zid ikki jihat: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga qo'shadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favqulotda ahamiyati ana shundan kelib chiqadi, u – Koinotning botiniy hukumdori olam yaratilishi sababchisi va maqsadidir. Komil inson haqidagi talimot so'fiy, faylasuf Ibn al – Arabiy tomonidan yaratilgan keyinchalik uning izdoshlari, jumladan O'rta Osiyoda Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan rivojlantirgan.¹

Mustaqillik sharofati bilan ma'naviy qadriyatlarni yiklash jarayonida ayrim olimlar tomonidan, tasavvufiy mavzular bo'yicha juda ko'p maqolalar, risolalar, tadqiqot va tarjimalar nashr qilinib keldi. Ayniqsa olimlar filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqulov, Orif Usmonov, Yoqibjon Is'hoqov, Sultonmurod Olim va boshqa bir qator tadqiqodchilar tomonidan yozilib nashr etilgan asarlar diqqatga sazovordir. Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyning qalamiga mansub "tasavvuf ta'limoti ildizlari" nomli ilmiy referat "Muloqot" jurnalining 1995 – yildagi 1 – 2, 3 – 4, 5-6 – sonlarida, "Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim" nomli Najmiddin Kubro risolasi arabchadan tarjimasi "Hayot va qonun" jurnalining 1995 – yilning 4,

¹ Ислом энциклапедияси Давлат илмий нашриёти 2004 йил 137 – 6

5, 6 – sonlarida va “Sadoqatli tolib” deb atalgan Mahmudi A`zamning “Ruboiylar sharhi” risolasining fors tilidan tarjimai “Milliy tiklanish” gazetasining 1996 – yilgi sonlarida nashr etilgan edi. Lekin shunday bo`lsa ham tasavvuf g`oyalari, uning mohiyati va maqsadlarini har tomonlana ilmiy tahlil etuvchi mukammalroq asarlarning o`rni bo`sh qolib kelmoqda. Mazkur bo`shliqlardan birini, taniqli tasavvufshunos olim va mutasavvif ustod Najmiddin Komilov to`ldirishga muvaffaq bo`lib, sharq falsafiy tafakkuri tarixi turkumidan “Tasavvuf” deb atalgan kitobining birinchi jildini nashr qildi.

Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” nomli kitobining to`qqizinchi bobi “mohiyat – inson uchun kurash” deb nomlanib, unda insonning nima ekanligi ya`ni mohiyati, u bosib o`tgan moddiy va ma`naviy taraqqiyot bosqichlarini chuqur anglab olish turli fanlarda asosiy muammolarni tashkil etib kelgan falsafa va tasavvuf ilmlarida inson markaziy muammo sifatida o`rganilgan.¹

Tasavvuf ta`limota insonni ruhiy – ma`naviy kamolotiga qaratilgan bo`lib, undan maqsad barcha moddiy va nafsoniy tubanliklarni oyoq osti qilib o`tib, insonni, komil inson – haqiqiy inson darajasiga ko`tarishdir. Irfon ahli nazarida inson ruhiy tarbiyalar bosqichlaridan o`tgandan keyin haqiqiy murshid rahbarligida shunday bir oliy maqomga ko`tariladiki, uni tasavvur qilish, inson tafakkuri doirasiga ham sig`maydi. Mavalaviy tili bilan aytganda “Vonchi qandar vahm Noyard on shavam” (Vahmu tasavvurida sig`maydigan narsaga aylanaman).

Olim asrning mazkur bobida ana shu kabi muhim falsafiy – irfoniylar masalalarni o`rtaga tashlab, uni har tomonlama tahlil va tajxiya qiladi. Ilmiy hulosalar chiqaradi.

Muallif tasavvuf g`oyalarning ko`p tarmoqligi va undagi ayrim qarama – qarshiliklarga ishora qilib, uni turli mazxablar va silsilalar qarashlarini birlashtiruvchi cheksiz fikr olami deb baholaydi. Inson uchun qayg`urish, uning manaviy komolatinini o`ylash, tasavvufning doimiy o`zak masalasi bo`lib kelgan, deb ta`riflaydi.

¹ Najmiddin Komilov Tasavvuf Movaraunnaхr T.: 2009-yil 565-b

Kitob muallifi o`n birinchi bobini “komil inson”ga bag`ishlaydi. Komil inson va uning hislatlari haqida turli manbalarda zikr etilgan turli fikr mulohazalarni eslatib o`tgandan keyin tasavvuf ahli sig`ingan – ideal – komil inson, aslida xalq ideali edi – bu odamlar jamiyatning tirik vijdoni edilar, kishilar ularga qarab hushyor tortar, dunyo behudaligidan o`ziga kelib, o`z qalbiga va qilqyotgan ishlariga razm solardilar, tavba qilardilar. Ularning af`oli va a`moli insonlar diliga quvvat, ko`ziga nur bag`ishlagan deb xulosa berishadi.

Shu o`rinda komil inson tasavvuf adabiyotida ko`p marta tilga olinib, munozaralarga sabab bo`lgani va bu haqda maxsus kitoblar yozilgani muallifning diqqatini o`ziga tortib, Sayyid Abdukarim Geloniy va Azizuddin Nasafiy tomonidan yozilgan “insoni komil” nomli risolalarni maxsus tilga olib o`tadi.

Birinchi bo`lib tasavvuf adabiyotida “komil inson” tushunchasini kiritgan Ibnul – Arabiy (1165 – 1240)ning nazari uni qiziqtiradi. Muallif manbalarga tayanib uni izohlaydi. Ibnul – Arabiy nazarida komil inson aqli kul tushunchasi bilan ma`nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy hirdan ilk marta aqli avvalni yaratdi va uning surati – shakli komil inson qiyofasida zuhur etdi. Shuning uchun “Xalaqallohu odama alo so`ratir – rahmon ” degan hadis mavjud. Komil inson shu tariqada Allohning Rahmon va Rahin sifatlariga ega bo`ldi deyilar.

Muallif Ibnul – Arabiyning fikrini quyidagidek izohlaydi: Ibnul – Arabiyning fikricha komil insonning yerdagi timsoli Hazrat Muhammad Payg`ambar (s.a.v)dir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy ilohiy bilimlar jamuljam edi. Payg`ambarimiz xalq va haq muqobilida turdilar va orada vosita edilar. Shunday bo`lgach hamma odamlarni komil inson deb atash joiz emas, agar payg`ambardan o`zga zotlarga nisbatan bu sifat aytilar ekan, buni shartli ta`rif yoinki shu ulag` martabaga hurmat ehtirom belgisi sifatida qabul qilish kerak.

Kitob muallifi, Sayyid Abdukarim Geloniy va shayx Omiliy qarashlarina zikr etgandan keyin, Ibnul – Arabiy bilan bu ikki mutassavifning qarashlaricha komil inson bir Kayhoniyy vujud bo`lib ko`rinadi, uning sifatleri yerdagi foniyy odamlar sifatiga, aniq shaxslar xislatiga o`xshamaydi, unda biz jamiki g`aroyib

tabiiy kuchlarning majmuini mushohada etgandanday bo`lamiz deb ta`kidlaydiki komil inson bular nazarida bir ruhdir, ma`naviy, aqliy qudratdir. Shu mazmunda uni Allohning halifasi, o`rinbosari deyish mumkin.

U bu borada ko`p qirrali va chuqur tekshirishlardan keyin, shayx Azizuddin Nasafiy “zubdatul – haqiq” nomli risolasidan bir qiziqarli fikrni keltiradi. Unga binoan butun borliq va mavjudod harakatdadir. Lekin bu harakatdan maqsad, inson martabasiga erishishdan iborat, ya`ni barcha jismlar, o`simliklar va hayvonlar, insonga taqlid qiladi, inson darajasiga ko`tarilish uchun intiladi va odamiy ham o`z mohiyatiga erishmaguncha tinmay intiladi.

Agar biz N.Komilov keltirgan Nasafiyning taraqqiyoti haqidagi fikrini, Jaloliddin Rumiyning taraqqiyot haqidagi nazari bilan solishtiradigon bo`lsak, ikkalasi ham bir hil maqsadni ifoda etadi.

Mavlaviy she`ri:

Az jamodiy murdamu, nomiy shudam

Vaz namo murdam, zi hayvon sar zadam.

Murdam az hayvoniyyu odam shudam,

Pas chi go`yam, chun zi murdan kam shudam.

Bori degar az falak parron shavam,

Vonchi kandar vahm noyad, on shavam.

Tarjimasi: qattiq jismdan o`lib (o`tib), o`simlikka aylandim, o`simlikni yo`qotib, hayvanlikdan keyin, o`limlar soni qancha kamaygani haqida nima desam ekan. Yana bir marta ko`kdan qanot qoqib uchib, vahmu tasavvurga sig`maydigan narsaga aylangumdir.

Muallif, tasavvuf o`ziga xos usuli bilan insonni tarbiyalar, uni shak – shubxa, izlanish, qidirishlar yo`lidan boshlab, o`z xilqati, o`z mohiyati haqida o`ylashga o`rgatadi, insonga o`zini va olamni tanib olish va ilohiy sevishni ta`lim berardi degan xulosa bilan bobni tugatadi.¹

¹ Абдулхаким Шаръий Жузжоний Тассавуф ва инсон. Т.: Адолат 2001 164, 174 - 175 - бб

Zamoni saodatda va undan keyingi dastlabki vaqtlarda aqoid, fiqh va boshqa islomiy ilmlar qatori tasavvuf ham alohida ajrab chiqqan emasdi. O`sha davrdagi musulmonlar Rasululloh sollalohu alayhi vasallamning hayotlik chog`idagi barcha narsada u zotning o`zlariga ergashar edilar.

Keyinchalik esa, sahobalar` o`zlari Qur`on va sunnatdan kerakli hukm va xulosalarni chiqarib olib, amal qilib yurdilar. O`sha paytda ruhiy kamolotga, zikr va zohidlikka moyil zotlar turli oyat va hadislardan o`zlari uchun dalil topib, mazkur ishlarni o`z hayotlariga tadbiq qildilar.

Bu borada sahobai kiromlar ichida to`rt roshid xaliyfa, Abu Zarr al – G`iforiy, Abdulloh ibn Amr, Abu Dardo, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar, Salmon Forsiy, ashobi suffa roziyallohu anhu va boshqalar ko`zga ko`ringan edilar.

Tobe`inlar avlodi esa, boshqa barcha ilmlar qatori ruhiy tarbiya va nafsni jilovlash ilmini ham sahobalaridan qabul qilib oldilar.

Ular orasidan tasavvuf yo`nalishini belgilashda va uning ilm sifatida shakllanishda katta hissa qo`shgan zotlar yetishib chiqdi. Bulardan Uvays al – Qaraniy, Hasan al – Basriy, Sa`iyd ibn Musayyab, Ja`far Sodiq va boshqalarni barcha e`tirof etib, zikr qiladilar. Ularning tutgan tasavvufi eng to`g`ri tasavvuf ekaniga hech kim xilof qila olmagan.

Tasavvuf va mutasavviflar tarixini o`rgangan olimlardan Abu Nu`ayn o`zining “Hulyatul avliyo” kitobida tasavvuf ila mashxur bo`lgan tobe`inlardan ikki yuz kishining tarjimai holini keltirgan.

Tab`a tobe`inlar avlodida Fuzayl ibn Iyoz va Ibrohim ibn Ahmad boshliq ko`plab so`fiylar yetishib chiqdilar.

Asta – sekin, ruhiy tarbiya ustozlari ham yetishib chiqa boshaldi. Ularning atrofida shogirdlari va o`z jamoalari ham paydo bo`la boshladi. Bora –bora, ular boshqalardan ajrab turadigan o`z belgilariga ham ega bo`ldilar.

Keyinchalik, bir ustozning ruhiy tarbiyasini hayotiga tadbiq qilib yurgan jamoa a`zolarining tutgan yo`lini “tariqat” deb nomlash odat tusiga kirdi. Zotan,

“tariqat” arabcha “toriyq” – “yoʻl” soʻzidan olingan boʻlib, ham moddiy, ham maʼnaviy yoʻlni ifoda etishga ishlatilaveradi.

Har bir tariqatning ustози oʻz shogirdlari tomonidan “shayx” deya eʼtirof qilindi.

Har bir shayx oʻz tariqatining Qurʼon va Sunnatga muvofiq ekanini, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oʻzlaridan olinganini isbotlashi kerak edi. Buning uchun har bir shayx oʻz ustozining va ustozining ustози ruhsatlarini isbotlab, silsilani Rasululloh sollallohu alayhi vasallamgacha yetkazar edi.

Bu maʼnoda ahli tasavvufning silsilasi xuddi muhaddislarning sanadagi va faqrlarning mazxabiga oʻxshab ketardi.

Agar tasavvuf tariqatlari tarixiga nazar soladigan boʻlsak, ulardan hozirgacha mashxur boʻlib kelayotganlari fiqhiy mazxablarga oʻxshab hijriy ikkinchi asrda emas, balki ancha keyin shuxrat topganlarini koʻramiz.

Albatta, har bir tariqatning asli Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga borib taqaladi. Shu sababli, uning tomirlari uzun hisoblanadi. Ammo, maʼlum shayx nomi ila mashxur boʻlgan katta tariyqatlarning aksari hijriy beshinchi va oltinchi asrlarga toʻgʻri keladi.

Shunday qilib, IX – X asrlarda pirlar nomlari bilan atalgan dastlabki tasavvuf tariqatlari va ularga tegishli honaqohlar vujudga keldi. Movoraunnahrda, xususan, Oʻzbekiston hududida XII asrda soʻfiylik oqimi Xoʻja Yusuf Hamadoniy tariqatidan boshlangan. Undan keyin turli yoʻnalishlar paydo boʻladi.

Tasavvuf poydevorini qurganlar:

1. Uvays al – Karaniy (vafoti 657)
2. Hasan al – Basriy (642 728)
3. Vosil ibn Ato (699 – 748)
4. Jaʼfar as – Sodiq (700 – 765)
5. Abdulhoshim Kufiy as – Sufiy (vafoti 767)
6. Soʻfiyoni as – Savriy (715 - 778)
7. Asad ibn Abdulloh al – kushayriy (vafoti 783)
8. Robiya Adaviya (714 – 801)

9. Ma`ruf al Qahriy (vafoti 816)
10. Xoris Muhosibiy (781 – 857)
11. Zunnun Misriy (796 – 861)
12. Hakim Termiziy (vafoti 869)
13. Boyazid Bistomiy (801 – 875)
14. Abul Husayn Nuriy (vafoti 907)
15. Junayd Bag`dodiy (vafoti 910)
16. Mansur Halloj (858 – 922)
17. Abu Bakr Kolobodiy (vafoti 995)
18. Abu Tolib al – Makkiy (vafoti 996)
19. Muhammad ibn Xusayn as – Sullamiy (942 – 1021)
20. Al – Mufid al – Xorisiy (948 - 1022)
21. Abulqosim al Kushayriy (986 – 1073)
22. Abulhasan Xujriviyy (vafoti 1076)
23. Muhiyiddin ibn al – Arabiy (1165 – 1240)

Tasavvuf haqida ilk marta asar ilmiy yozgan kishi Misrlik so`fiy Zunnun Misriy (796 – 861 ) bo`lgan bo`lsa, bu borada eng ko`p asar yozgan tasavvuf olimi Muhiyiddin ibn al – Arabiy (1165 – 1240)dir.

Tasavvufning bir butun ta`limot xoliga keltirishga va uning boshqa ilmlar kabi o`qitilishiga sabab bo`lga birinchi zot Ahmad ibn Atordir. U bu ish uchun birinchi bo`lib darsxona qurdirgan.

Shunday qilib, tasavvuf tarixida IX – X asrlardan asosiy tariqatlar yuzaga kela boshladi.

Asoschilarga nisbat berilib nomlangan ilk tariqatlar:

1. **Muhosibiya** – asoschisi Horis Muhosibiy (857 –yilda vafot etgan)
2. **Qassoriya** – asoschisi Hamdur Qassor (884 – yil vafot etgan)
3. **Tayfuriya** – asoschisi Abu Yazid Tayfur al – Boyazid Bistomiy (875 – yilda vafot etgan)
4. **Junaydiya** – asoschisi Junayd al – Bag`dodiy (910 – yilda vafot etgan)
5. **Nuriya** - asoschisi Abul Husayn an – Nuriy (907 – yilda vafot etgan)

6. **Sahliya** – asoschisi Sahl ibn Abdulloh at – Tustariy (896 – yilda v. e.)
7. **Hakimiya** – asoschisi Hakim at Termiziy (869 – yilda vafot etgan)
8. **Harroziya** – asoschisi abu Sa`id al – Harroz (899 – yilda vafot etgan)
9. **Hafifiya** – asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn al – Hafif (940 – yil vafot etgan)
10. **Sayyoriya** – asoschisi Abulabbos as – Sayyoriy (XI asr boshlarida vafot etgan)
11. **Hubayriya** – asoschisi Hubayra al – Basriy (uning haqida ma`lumotlar yo`q)
12. **Hallojiya** – asoschisi Foris ismli shayx (ma`lumotlar yo`q)
13. **Hulmoniya** – asoschisi Abu Huulmon ad – Damashriy (ma`lumotlar yo`q)

Keyingi davrlarda yuzaga kelgan tariqatlar:

1. Qodiriya tariqati.

Bu tariqat asoschisi va piri Abulqodir Jiloniy (Giloniy 1077 – 1167). “G`avs ul – a`zam”, “G`avs us – saqalayn ” kabi sifatlar bilan tanilgan shayx. Eronning Jilon shaxrida dunyoga kelgan.

Shayx Abulqodir islomning xanbaliya mazxabiga mansub bo`lgan. U junayd Bag`dodiy ta`limotining davomchisidir.

Abulqodir Jiloniyning silsilasi ona tomonidan 12 – ajdodning hazrat Aliga borib taqaladi. Buyuk shaxs 42 nafar farzand ko`rgan, 11 nafari otasining tariqatiga kirgan. Bu silsilaning ramzi yashil rangdir.

Qodiriya tariqati Iroq, Suriya, Yaman, Livan, Falastin, Xijoz, Misr, Jazoir, Marokash, Sudan, Senegal, Gvineya, Niger, Mavritaniya, Turkiya, Indoneziya, Eron davlatlarida tarqlgan.

Tariqatning markazi Bag`dodda edi.

Asosiy shaxobchalari – ash`ariya, xolisiya, g`aribiya, rumiya, xiloliya, yofi`iya, isoviya, asdiya, akbariya.

2. Rifoïya tariqati.

Bu tariqat o`z asoschisi Ahmad ibn Ali ibn Ahmad ar – Rifoïy rahmatullohi alayhining nomi bilan atalgan. U kishi Iroqda, Barsa bilan Vosit orasidagi Ummu Ubayda qishlog`ida hijriy 512 – sanada tavallud topganlar. Yoshliklarida otalaridan ajrab, yetim qolganlar va tog`alarining tarbiyasini olganlar. Avvalo Shoe`iy mazxabi bo`yicha fiqhini o`rganganlar va u kishining o`rniga tariyqat shayxi bo`lganlar. Ahmad ibn Ali ibn Ahmad ar – Rifoïy rahmatullohi alayhi hijriy 578 – sanada vafot topganlar.

3.Sholiziya tariqati.

Bu tariqat Abul Hasan ash – Sholiziy rahmatullohi alayhiga nisbat berilgandir. U kishi hijriy 593 – sanada tug`ulib , hijriy 656 – sanada vafot topganlar. Abul Hasan ash – Sholiziy rahmatullohi alayhi olim, obid, zohid va mashxur sufiylardan bo`lganlar. U kishi Tunis, Misr, Iroq va Makka tomonlarga ko`p marotaba safarlar qilganlar. Qohiraning Komiliya madrasasida qozi Iyozning “Shifo” kitobini, “Risolai Qushayriya”ni, “Al – Muharrar al - Vajiziy”ni talabalarga o`qitganlar. U kishi uzlatni va mahrumlik hayotini o`zlariga ep ko`rmaganlar. Odamlarga aralashib, dunyo ne`matlaridan baxramand bo`lib yashaganlar.

4.Mavlaviya tariqati.

Mavlono Jaloliddin Rumi rahmatullohi alayhiga nisbat berilgan bu taritqat Onado`lida keng tarqalgan edi. Mavlono Jaloliddin Rumi rahlotullohhi alayhi hijriy 604 – sanada tavallud topganlar. U kishining nasablari ota tarfdan Abu Bakr Siddiqqa, ona tarafdin Movarounnahrda hokim surgan Xorazmshoxlar sulolasiga borib tarqaladi. U kishi ko`plab safarlardan keyin Sulton Alouddin Saljuqiyning poytaxti Qo`niya shaxrida uzoq vaqt yashab, o`sha yerda vafot etib, dafn qilinganlar. U kishi sha`riy ilmlarni ko`zga ko`ringan hanafiy faqh bo`lgan o`z otalaridan olganlar. Mavlono Jaloliddin Rumi rahmatullohi alayhi o`z umrlarining birinchi davrida mudarris, voiz va faqih bo`lganlar. Keyin esa, so`fiylik, shoirlik va hakimlik bilan shuhrat qozonganlar.

5.Yassaviya tariqati.

Bu tariqat ulug` mutasavvif Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayhining nomlari bilan atalgandir. U kishi hijriy 562 – sanada vafot etganlar. Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayhi shayx Yusuf Hamadoniyning xaliyfalaridan bo`lganalar.¹

Xoja Ahmad Yassaviy tasavvufning ulug` peshonalarinalaridan biri, u yassaviya tariqatiga asos solganligi va turkiy tilda sodda, xalqchil ulug` she`riyat – so`fiyona adabiyotni boshlab berganligi bilan nomi islom olamida qadrli va mo`tabardir. Ul zoti sharif islomiy haqiqatlar va tasavvuf arkonini ajabtovur mahorat bilan omixta qilib, shariat – u tariqatni bir butun deb bilib, imon va sadoqat g`oyalarini qizg`in extiros ila kuylagan va afsonaviy Arslonbob timsolida mujassam bo`lmish turkiy avliyolar ruhini piri Xoja Yusuf Hamadoniyni qabul qilgan. Xuroson so`fiyona ta`limotiga qo`shib, o`z xalqini yuksak ma`rifat va ilmu irfonga hidoyat etdi. Yasavviya tariqati silsila jihatdan naqshbandlikka aloqadordir.

2

6.Naqshbandiya tariqati.

Bu tariqat Shox Naqshband ismi bilan mashxur bo`lgan Muhammad Bahouddin Buxoriy rahmatullohi alayhiga nisbat beriladi. U kishi hijriy 717 – sanada Buxaro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog`ida dunyoga kelganlar. O`n sakkiz yoshlarida uylanganlar. Shayx Sammosiy va Amir Kulol rahmatullohi alayhimdan ruhiy tarbiya olganlar. Shu bilan birga, shariat ulamolari va Rasululloh sallalohu alayhi vasallamning sunnatlari bo`yicha olimlari suhbatlarida doimiy ravishda ishtirok etar edilar. U kishi ikki marta haj ziyoratini ado etganlar va Fors hamda uning atrofidagi ko`plab islom yurtlariga safarlar qilganlar. Shox Naqshband rahmatullohi alayhi hijriy 791 – sananing Rabi`ul – avval oyining uchunchi kuni dushanbaga o`tar kechasi vafot etganlar.

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф Тасаввуф хакида тасаввур Т.: “Шарк” 2011 й. 4 – 6 – бет.

² Нажмиддин Комилов “Тасаввуф” Т.: “Моварауннахр” 2009 й. 333 – бет

Hazrati Bahouddin rahmatullohi alayhi umrlari bo`yi o`z muridlarini sunnati Muhammadiya yo`lida tarbiyalab o`tdilar. U kishining qo`llarida o`ng minglab muridlar kamol topdi. Shox Naqshband rahmatullohi alayhining tariqatlari hozirgi kunda ham dunyoning ko`plab yurtlarida keng tarqalgandir.

Shayx Abdulloh Dehlaviy Naqshbandiya tariqati haqida quyidagilarni yozadilar:

“Bu tariqat Haq taoloning huzurida doimiy hozirlikdir, Islom aqidasi, Ahli sunna va jamoa aqidasi mustahkamlashdir va Nabiy sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga ergashishdir.”

Ulamolar Muhammad Murod O`zbakiyning Naqshbandiya tariqati haqida aytgan quyidagi gaplarini rivoyat qiladilar:

“U, sahobai kiromlarning asl holicha, ziyoda ham, nuqson ham bo`lmay qolgan tariqatidir. U, botinda ham, zohirda ham barcha xarakat va sakanotlarda sunnatga va aziymatga komili intizom qilgan, bid`at va ruxsatdan batamom chetda bo`lgan holda ibodatda bardavom bo`lishdan iboratdir”.

Shayx Amin Alouddin Haqishbandiy o`zining “Naqshbandiya tariqati nadir?” nomli kitobida quyidagilarni yozadi:

“Muhaqqiq ulamolar Naqshbandiya tariqati haqida quyidagilarni ta`kidlaydilar:

Naqshbandiya tasavvufi o`rtacha va mo`tadildir. U sulukdagi mo`tadillik, shariatga ergashish, tariqatning osonligi bilan ajralib turadi. U, xususan, din ulamolari ichida keng tarqalgan. Naqshbandiy so`fiyning qalbi Alloh bilan, jismi banda bilan.

Bu tariqatdagi nazarni o`ziga tortadigan eng muhim narsa – sokinlik, ya`ni, uning riyodan xoli bo`lmaydigan baqiriy – chaqiriy, tarannum va tinglashlardan uzoqligidir.¹

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф “Тасаввуф хакида тасаввур”Т.: “Шарк” 2011 йил. 4 – 6 – бет.

III bob. Qalandarlik tariqati.

Qalandarlik dastlab malomatiya, keyinchalik esa darveshlik tariqati g'oyalari ta'sirida shakllandi.

Malomatiya tariqati. Bu tariqat so'fiylik tariqatlaridan biri, X- XI asrlarda Xurosonda shakllangan. Malomatiya tariqatida so'fiyning g'ururi, o'zidan mamnunligi tariqat yo'lida katta havf deb talqin etilgan. So'fiylarda o'z muvaffaqiyatlarini oshkor qilmasdan, odamlarning maqtovi va g'amxo'rligiga emas, balki ularning qahri va malomatiga sabab bo'ladigan xatti – harakatlar qilish, o'ziga nisbat g'azab va nafratuyg'otadigan tarzda hayot kechish kerak degan ta'limot ilgari surgan.

Malomatiya yo'lidan borgan so'fiylar odamlar orasida beodobligi, xunuk, sovuq qiliqlari, o'zini yomon tutishi va o'zini hammaga yomon ko'rsatishi bilan malomat ortirib yurganlar. Ta'limotning nomi ham shundan olingan.¹

Qalandarlik tariqati o'z taraqqiyoti davomida bir necha bosqichni bosib o'tdi. Qalandarlikni turli mualliflar turlicha, ba'zan qarama-qarshi talqin qiladilar. Chunki turli tarixiy davrlarda qalandarlik ta'limoti amaliyoti va usuliyotida turlicha oqimlar va qarashlar mavjud bo'lgan. Qalandarlik tarixidagi quyidagi ikki bosqich to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Bismillahir rahmanir rohim!

“Qo'rqsang, aytna, aytsang, qo'rqma”, deyishgan mashoyixlar.

Haq aytsak, Allohning madadi bilandir.

Xato qilsak, birodarlarimiz kechirsinlar. Alloh kechirsin. Zotan, Alloh kechirguvchidir. Alloh mehribondir. Alloh rahmlidir.

Chun nest har chi nest juz bod ba dast,

Chun hast ba har chi hast nuqsonu shikaet.

Pindor, ki hast har chi dar olam nest,

Angor, ki nest har chi dar olam hast.

Najmiddin Kubro

¹ Абдулхай Абдурахмонов. Саодатга элтувчи билим . Моварауннахр Т.: 2005 й 332- б

Har neki go‘yo yo‘q shamol kabi ko‘rinmas zinhor,

Har neki go‘yo bor omonatdir, yemrilar abgor.

Ko‘rgin, har nimaki olamda bor, oxiri yo‘qdir,

Bilgin, har nimaki olamda yo‘q, aslida bor, bor...

Bu mafkura donishmand ajdodlarimiz tasavvuf ta’limotining mafkurasidir. Unta ko‘ra bizga bor bo‘lib tuyulgan narsalar aslida yo‘qdir (yo‘qolguvchidir), chunki ular yaralgandir va komil emasdir, ular harakatda, o‘zgarishda, demak- ki, oxiri yemirilish va yo‘qolishdadir.

Tug‘ilgan narsa o‘ladi. Ko‘kargan narsa quriydi. Boshlangan narsa oxirlaydi. Ibtidosi bor narsaning intihosi ham bor.

Allohning ibtidosi yo‘qsir va shuning uchun intihosi ham yo‘qdir. O‘zi xuddi shamol ko‘zga ko‘rinmaganidek, ko‘rinmasa-da, ammo bordir, komildir. Daraxtni shamol tebratadi, ammo o‘zi ko‘rinmaydi. Biz shamolni ko‘rmasakda, daraxtning, tebranganini ko‘rib, shamolning borli- giga ikror bo‘lamiz. Ammo shamolni yaratib qo‘ygan Allohni ko‘rmaganimiz uchun gohi gumrohdik bilan uning borligiga shubha qilamiz. Yaralgan narsaga ishonchimiz komil, ammo Yaratganga...

Alloh, o‘zing kechirgin! Sen buyuksan! Sen poksan! Yaratilganlar Sening qoshingda ojizdirlar. Dunyoda ko‘rinib, sezilib turgan bor narsa o‘tkinchidir.

Hamma yaratilganlar foniidir. Yaratgan bo- qiydir. Bir qaraganda, bu gaplar shunchaki so‘z o‘yiniga o‘xshaydi. Aslida, chindir, o‘yin emas.

Biz ko‘rib turgan narsamizga qarab fikrlaymiz. Ko‘zimizni yumsak, o‘ylayotgan narsamizni ko‘ra boshlaymiz. Shuning uchun donishmand shoir “ko‘zga aylansin ko‘ngil” deya tashbeh qiladi.¹

Siz fotonegativni ko‘rgansiz. Fotonegativ — suratning aksi. Eng go‘zal mavjudotning surati ham fotonegativda dahshatli ko‘rinadi. Negativda pozitivni ko‘rishga o‘rganish kerak. Xuddi shunday, biz o‘zimiz ko‘nik- magan, kutmagan fikrlardan qo‘rqmasligimiz kerak. Faylasuflardan biri aytganidek, hamma fikrlar-

¹ Хидоят // 2001 йил №1 14-бет

ning yashashga haqqi bor. Negativ fikrlar pozitiv fikrlarning narigi tomondan ko‘rinishi xolos. Qora — oqning soyasidir, aksidir.

Dunyo — go‘zal. Ko‘plar bu dunyoning jamoli deb aqlidan ozadi, nafsu hirsning komiga tushadi. Allohning o‘zi qanchalar go‘zaldir.! So‘fiylar Allohning jamoliga oshiq bo‘lishgan. Tasavvuf Alloh jamoliga yetishish sari harakat yo‘lidir.

Seni ko‘rmayotganlari hechdir, Allohni ko‘rmayotganlari fojeadir. U yaratgan dunyoda yurib, uni tanimayotganlari fojeadir. “Men gizli bir xazina edim, oshkorlanishni ista- dim”, deydi Alloh va o‘zining tajallisi uchun dunyoni bor qiladi. Jilosi shu qadar go‘zal bo‘lsa (axir, dunyo deb kimlar o‘zini yo‘qotmadi!), Allohning o‘zi qanchalar go‘zaldir.

Afsuski, odamlar o‘tkinchi dunyo jilvasiga oshiq bo‘ladilar-u, Allohni ko‘ra olish uchun tariqat mashaqqatini chekishga intilmaydilar. Tariqat yo‘li mashaqqatlidir. U hamma o‘rgangan “haqiqat”larga qarshi tura bilmoqni talab qiladi.

Hechi mo ne-yu, hechi mo kam ne,
Az payi hech-hechi mo g‘am ne.
Janda bar po‘shstu pusht — go‘riston,
Ro‘ze, ki mirem mo, motam ne.

Ya’ni:

Hechimiz yo‘g‘-u, hechimiz kam emas,
Hechimiz yo‘qi bizga g‘am emas.
Janda kafanu uyimiz go‘riston,
Biz o‘lgan kun hech motam emas.

Naqshbandning bu nolalaridan ayonki, tasavvuf ahli bu jilvagar dunyoga bog‘langan rishtalarni bir-bir uzgan. Darvishning hech narsasi yo‘qligini u ovqat yemagan, kiyim kiymagan deb tushunmaslik kerak. Darvishlar ovqatni nafs talabi bilan yemaganlar.¹ Kiyimni chiroyli ko‘rinish uchun kiymaganlar. Ovqat qanoat bilan yeyilgan. Kiyimi badanni berkitish uchun kiyilgan. Kiyimni kafanga, uyni

¹ Хидоят // 2001 йил №1 15-бет

qabrga tenglaganlari ularning o'limga — Allohning dargohiga hamisha tayyorliklarini bildiradi. Shuning uchun o'lim kuni ham ularga motam emas.

Allohni aqlning o'zi bilan tanib bo'lmaydi, uni aql bilan qalb payvasta bo'lgan nuqtada tanish mumkin. Allohning yo'li — yolg'iz aql talpinayotgan tomonda emas, qalb bilan aql birga talpinayotgan joydadir, ehtimol.

Alloh insonni tuproqdan bor qildi. Odam o'ladi va tani bir kun tuproqqa aylanib chirydi. Ammo u manmanlikka beriladi — yaxshi yesam, yaxshi kiyinsam, deydi, amalga mingisi keladi, qo'yib bersang, qolgan hamma uning quli bo'lsa... Holbuki, odam omonat, u havas qilayotgan dunyo o'tkinchi.

Odam bir kuni o'lishini biladi, tuproqqa aralashib, qurt-qumursqalarga talanishini o'ylab qo'rquvga tushadi, ammo bu qo'rquv dunyosevarlik hosilasidir. Qo'rqqani sari banda o'zini botir ko'rsatishga tirishadi.

So'fiylar o'limdan qo'rqmaydilar, chunki bu yasama dunyoni sevmaydilar, uni Yaratganni sevadilar. Ular negativni emas, pozitivni, ya'ni, Haqni sevadilar, Allohga oshiqadilar.¹

Odamlar dunyoga mehmondirlar, birin-ketin bu chetidan kirib, birin-ketin u chetidan chiqib ketaveradilar. Ammo aksariyat odamlar o'zlarini bu dunyoga ming yilga, ehtimol, manguga kelganday tutadilar.

Alloh akbardir, bizning cheklangan aqlimizga sig'maydi, cheksizdir. Allohni sig'dirolmagan aqlimiz shubhalarga boradi: "Haqiqat bormikan?"; "Uni hech kim ko'rgani yo'q"; "Agar bor bo'lsa, birorta odam ko'rardi"... Aqlimiz hamma narsaga sabab axtaradi, isbot istaydi. Holbuki, Alloh tasavvurdan tashqari-dir. Alloh qalbgaga sig'adir.

"Dil ba yoru dast bakor", ya'ni,
"Qalb Allohda, qo'l ishda", dedilar Bahovuddin Naqshband.

'Qalb Alloh bandalarga in'om etgan mo'zijadir. Alloh qalbning imkoniyatlari orqali ham bandaga o'zining qudratini namoyon qiladi.

Qalb aql bilan tushuniladigan voqea va hodisalarnigina emas, aql bovar qilmaydiganlarini ham sig'dirishga qodirdir. Ochiq chehrali, murosayu madorali

¹ Хидоят // 2001 йил №1 25-бет

odamni ko'rsak, "bag'rikeng odam", "ko'ngli keng inson" deymiz. Ana shu bag'rikenglik demokratiyaning asosidir. Demokratiya turli fikrlarni chidab eshitish, xalqni uning iro- dasiga mos yo'llar bilan boshqarish demakdir.

Mo in kor nakunem,

Ammo inkor nakunem.

Ya'ni:

Bu ishni zinhor qilmaymiz,

Qilganni inkor etmaymiz.

Bahouddin Naqshbandning bu hikmatlari tariqatning bag'rikenglik tamoyilini namoyish etadi. Biz o'zimiz qilmagan ishni, o'zimiz anglamagan fikrni inkor qilmaymiz, uni tushunishga harakat qilamiz, deydilar Naqshband hazratlari.

Yana deganlarki: "Bizning tariqatimiz suh- batdir va xilvatda shuhratdur va shuhratda ofat- dur. Xayriyat jam'iyatdadur va jam'iyat suhbatda- dur"

(N. Komilov, "Tasavvuf", 1-kitob, 107-bet).

Bugun demokratik davlat qurmoqchi bo'lib "fuqarolik jamiyati", "kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan shiorlar e'lon qilinmoqda. Naqshbandning ta'rificha, haqiqatan ham barcha yaxshi ishlar, ezgulik, "xayriyat jamiyatdadur va jamiyat suhbatdadur".

Fuqarolik jamiyati suhbat maqomini — hammaning tengligini va inson huquqlari ustuvorligini talab qiladi.¹

Allohga ibodat xolis niyat va ixlosni talab kdladi. Jaloliddin Rumiyning "Fihi mo fihi" asarlarida keltirilishicha, bir kishi mavlonodan so'raydi: "Namozdan ham afzalroq ibodat bormi?!" U kishi javob beradilar: "Namozning joni (ruhi) o'qilgan namozdan yaxshiroqdir. Imon namozdan ustundir, chunki namoz kunda besh mahal, imon esa istisnosiz hamisha (hamma vaqt, har lahzada, har nafas kirgan-chiqqanida) farzdir. Namoz uzrli sabab bilan qoldirilib, fursat bo'lishi bilan ado etilishi mumkin. Imon uchun uzr yo'q (ya'ni, hech qanday vajkorson imonsizlikni

¹ Хидоят // 2001 йил №1 47-бет

oqlamaydi,.). Namozsiz imonning foydasi bo‘ladi. Ammo imonsiz namozning foydasi yo‘q...Namoz har dinda turlicha, imon esa o‘zgar- masdir”¹

Qalandarlik harakati XI asr boshlarida malomatiya g‘oyalari ta’sirida Xuroson va O‘rta Osiyoda paydo bo‘ldi. Bu bosqichda u aniq tashkiliy tuzilmaga ega emas edi. Lekin o‘sha davr manbalarida qalandarlik “uyushma” ma’nosini beruvchi toifa sifatida tilga olinadi. Biroq “uyushma” rahbarlarining shajarasi qayd etilmaydi. Dastlab ko‘p bo‘lmagan tarafdorlarga ega bo‘lgan qalandarlik tezda mashhur bo‘lib, sharqda Farg‘onagacha, g‘arbda Iroq, Suriyagacha tarqaldi. XIII asr boshlariga kelib qalandarlik inqirozga yuz tutadi. Tarafdorlarining bir qismi qalandarlik tariqatiga birlashgan bo‘lsalar, ikkinchi qismi boshqa tariqatlarga qo‘shilib ketdilar. Qalandarlik aniq ishlab chiqilgan ta’limotga ega bo‘lganligi xususida ma’lumot yo‘q. U nomusulmon zohidlari (nasroniylar va budda rohiblari) amaliyotini o‘zida ifoda etgan, degan fikr ham mavjud.

Abdulloh Ansoriy (vaf. mil. 1089) qalandarlikni alohida guruhga kiritib, ularning qarashlarini mistika (tarkidunyochilik)ga yaqin deb hisoblasa, Abu Hafs Umar Suhravardiy (1145-1234) qalandarlikning tasavvufga aloqadorligini inkor qiladi va malomatiya bilan qalandarlikning o‘xshashligini e’tirof etadi. Suhravardiyning bu fikriga Abdurahmon Jomiy ham qo‘shiladi. Malomatiyadan o‘zlashtirilgan malomat qilish (tanbeh berish) tamoyilini qalandarlik bema’ni deb hisoblagan. Agar malomatiya tarafdorlari o‘z turmush tarzi va qarashlarini pinhon tutishgan bo‘lsa, qalandarlik tarafdorlari boshqalarning g‘ashini keltiruvchi yurish-turishlarini har tomonlama oshkor qilishgan va shu orqali tanbeh eshitishgan, yashash va yurish-turishning belgilab qo‘yilgan qoidalariga rioya qilmaslik bahonalarini topishga harakat qilishgan. Qalandarlik qalb oromi g‘oyasi bilan sug‘orilgan qalbiy poklanishni afzal ko‘radi. Uni bu dunyo quvonchlari, zavq-shavqlari qiziqitirmaydi, chunki bu dunyoda barcha narsa o‘tkinchi va nisbiydir deb hisoblaydi.

¹ Жалолоддин Румий Ичиндаги ичиндадир Тошкент, “Ёзувчи”, 1997 йил. 34—35-бетлар.

Tariqat. Qalandarlik ta'limotining ilk davridan unga hinduiylik va buddaviylik an'analarining ta'siri oqibatida u boshqa musulmon tariqatlari ta'limotlaridan farq qilgan. Bu bosqichda uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat bo'lgan: uzlatga chekinishni va xonaqohlarda birga istiqomat qilishni rad etish (lekin birga istiqomat qilishni rad etishga aksariyat hollarda rioya qilinmagan, chunki ko'p joylarda tariqat xonaqohlari kurila boshlagan edi), islom arkonlariga befarq munosabat- da bo'lish, juma namoziga ishtirok etishdan bosh tortish, ro'za tutmaslik, so'fiylik amaliyotidagi haftaning muayyan kunlarida tutiladigan ro'zani inkor etish, sadaqa hisobiga yashash, oz miqsordagi shaxsiy buyumlardan tashqari boshqa turdagi har qanday mulkdan voz kechish, darbadarlikdagi hayot tarzi. Qalandarlik tariqatining bir qism a'zolari uylanmaslikka ahs qilganlar. A'zolar ekzotik tashqi qiyofalari bilan ajralib turishgan (taqir qilib olingan soch, qosh, mo'ylov va soqol. XIII asr birinchi choragida). Ular belgacha tushadigan xirqa, konussimon tukli paxmoq qalpoq kiyib yurishgan. Shuningdek, metallardan yasalgan og'ir taqinchoqlar, shoda, uzuk, bilaguzuk taqib yurganlar.

Qalandarlik tariqati a'zolari hech qachon his- tuyg'ularga berilmasliklari, bir dona kiyim-bosh va parcha nonga qanoat qilishlari, qimmatbaho narsalar- dan hazar qilishlari, odamlardan chetlashishlari, xushmuomala bo'lishlari, doim kezib yurishlari, riyokorlikdan saqlanishlari lozim bo'lgan. Bu qoidalar qalandarlik tariqati asoschisi Jamoluddin Muhammad Savojiy (vaf. mil. 1232) tarafidan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, bu tariqatning ba'zi a'zolari bayroq, dasturxon, chiroq va kichik nog'orani qalandarlik tariqatining asosiy ramzlari deb hisoblashgan.¹ Bayroq — piri valiy bo'lib, muridlar qiyomat kuni bayroq orqali o'z pirlarini topishlari mumkin bo'lgan. Dasturxon — qalandarning xuddi Ibrohim (a.s.)dek mehmondo'stligi belgisi. Chiroq — qalandarlik aql-idrok va g'oyalarining tiniqligi ramzi. Kichik nog'ora ohanglari vositasida qalandarlar Allohga bo'lgan muhabbatini izhor etishgan. Qalandarlik tariqati amaliyotiga boshqa tariqat vakillari ham turli darajada amal qilishgan.

¹ Нақшбандия // 2009 йил №1 15 -бет

Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ishida ko`tarilgan mavzu yuzasidan tasavvufda Qalandariya (qalandariylik,qalandarlik) tariqati XI-XII asrlardan e'tiboran shakllana boshlagan. Ilmiy manbalar bu tariqatning asoschisi Jamoliddin Soviy (vaf. 1232 y) ekanligini ta'kidlaydi. Qalandariya o'ziga xos urf-odatga ega bo'lgan tariqat bo'lib, ko'p olimlar uni malomatiylikdan ajralib chiqqanligini e'tirof etishgan. Moskvadan chiqqan “ Islom qomusiy lug'atida ” ham shunday deyilgan. (Islam.Entsiklopedicheskiy slovar. –M. “ Nauka “ 1991, 129-130 str.). Qalandarlikning paydo bo'lishi va kelib chiqishi haqida turli-tuman fikrlar yo'q emas. Qalandarlik-tasavvufga aloqasi bo'lmagan, tashkillashgan bir jamoadir, degan olimlar ham bor. Qalandarlik tarixiga nazar solsak,dastlabki davrlarda uyushgan va ma'lum qonun-qoidalar asosida qurilgani, a'zolarining maxsus liboslar kiyib yurgani ma'lum bo'ladi.

Qalandarlar orasida diyonatlilari ham giyohvandlari ham bo'lgan. Ularning ko'pi mujarrad, ya'ni bo'ydoq yurgan. Qalandarlar aynan mana shu uylanmasliklari va tilanchilik qilishlari uchun ba'zi mutasavviflar tomonidan tanqid ostiga olingan. Chunki Islom dinida uylanmaslik ham,tilanchilik orqasidan kun ko'rish ham gunoh sanalgan. Davrlar o'tishi bilan ularning qonun-qoidalarida,liboslarida va qalandarxonalardagi tartiblarda o'zgarishlar ro'y bergan. Qadimgi lug'at va ilmiy manbalarda qalandar atamasining bir necha ma'nolari berilgan. Jumladan: ” yo'nilmagan yog'och “ , “ diniy g'azallar o'qib, ham dinni targ'ib qiluvchi,ham darbadar kezuvcchi darvesh “ , ko'chma ma'noda “ dunyodan voz kechgan ,tarki dunyo qilgan kishi, zohid ”. Qalandarxona –qalandarlar yig'iladigan va tunaydigan joy.

O'rta Osiyoda rasmiy islom dini bilan bir qatorda tasavvuf ham keng tarqaldi va ommalashdi. Yassaviylik,kubraviylik,naqshbandiylik kabi mashhur tariqatlarning falsafasi, axloqi va qonuniyatlari xalqqa yaqin bo'lganligi uchun butun xalq ommasini o'ziga jalb etdi. Qalandariylikning bir qator qonuniyatlarini xalq o'ziga singdirolmagani uchun ham bu tariqat xalq orasida ommalashmagan. Qalandarlarning tashqi ko'rinishi va kiyim-kechagi ham g'ayrioddiy edi. Soch,

soqol-mo'ylov hatto qoshlarini ham qirtishlab yurardilar. O'ziga xos ton,hirqa,pahmoq yungli kuloh,har xil jez bezaklar-munchoqlar, halqalar, bilaguzuklar, uzuklar taqib olishardi. Qo'lda aso, belda kashkul bilan qalandarona mavzudagi g'azallarni o'qib yurishardi.

Bobur esa “ Boburnoma ” da xalqni din yo'lidan chalg'itishga uringan Shahboz qaladarning qabrini tekislab tashlagani haqida yozadi. Qalandarlik g'oyasini Huvaydo, Sufiy,Qalandar,Xarobotiy, Qoriy, Majzubi Namangoniy, Azim Xoja Eshon davom ettirdilar.

Mustaqillik sharofati bilan barcha milliy, ma'naviy qadriyatlarimizga qaytish baxtiga muyassar bo'ldik. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Xo'ja Ahror va Mahmudi A'zam, Boborahm Mashrab kabi mashxur tasavvuf vakillarining xotirasini nishonlab, ular qoldirgan boy ma'naviy yodgaorliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu hususida prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: “ Ulug` bobokalonlarimiz ruhiga, bashariyat tarixi va madaniyati hazinasiga katta hissa qo'shgan ulug` ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo'lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongidan mustahkam joy olish – bu ham yangi zamonning muhim hususiyati”.dir¹


¹ И. А. Каримов Истиклол ва манавият Т.: 1994 йил 19 – 20 бетлар


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- И.А. Каримов Истиқлол ва маънавият. Т.: 1994 й. 19-20-бетлар.
- И.А. Каримов Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.: 1996 й. 40-бет.
- И.А. Каримов XXI аср бусагасида: хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. Т.: 1998 й,
- И.А. Каримов Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008 й.
- Islom Karimov tashabbusi bilan 2014-yil 15-16- may kunlari Samarqand shahrida “ O’rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi , uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati “ mavzusidagi xalqaro konferensiya.
1. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асар. Т.: “Фан”, 1968 й. 306-бет.
 2. Абулҳаким Шаръий Журжоний. Тасаввуф ва инсон. Т.: “Адолат”, 2001 й. 164-174-175-бетлар.
 3. Исо Жабборов, Санжар Жабборов. Жаҳон динлари тарихи. Т.: “Ўзбекистон”, 2002 й. 158-162-бетлар.
 4. Ислон энциклопедияси. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2004 й. 137-бет.
 5. Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: “Шарқ”, 2009 й. 3-бет.
 6. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.: “Мовароуннаҳр”, 2009 й. 333-бет.
 7. Фалсафа *энциклопедик лугат*. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2010 й. 301-302 бет.
 8. Шайх Муҳаммад Солих Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. Т.: “Шарқ”, 2011 й. 29-36-64-70-бетлар.
 9. Накшбандия // 1-сон (1). 2009-йил
 10. Google.uz.
 11. Islom.uz.
 12. Ziyonet.uz.

Novalar

Islom dinining tarkibiy qismlari





2 – ilova

Tariqatning 3 ta asosiy tarkibi

Tariqi ahyor

Xayrli insonlar yo'li


Tariqi abror

Yaxshi oliyjanob, javonmard
insonlar yo'li

Tariqi shuttur

Oshiqlar yo'li

3 – ilova



Tariqat liboslari

Hirqa- (arabcha soʻz boʻlib, yamoq-qumoq) Tariqat ahli kiyadigan “ junli matodan ” tikilgan ustki kiyim. Bu libosni oldi ochiq , yoqasiz , yengi boʻyi ham uzun boʻlgan. Hirqa kiyish soʻfiylikda shayxga taslim boʻlishni muridlikka oʻtilganligini bildiradi. Pirmi muridga yechib bergan hirqasi muridga soʻfiylik yoʻlidagi ruhsatnoma vazifasini bajaradi. Hirqa kiyish anʼanasi Ibrohim alayhisallomga borib taqaladi.

Kuloh- jun va moʻyna aralash tikilgan bosh kiyim , telpak yoki kallapoʻsh. Kuloh ham tariqat ahliga marosim bilan kiydirilgan. Hirqa va kulohni darvesh va qalandarlar ham kiyishgan.

Janda – beldan tepasi bor , pasti keng uzunligi toʻpiqqacha yoqasiz , yengsiz oldi beligacha ochiq boʻlgan libos.

Kashkul- qalandar, darveshlarning sadaqa pulini solib yuradigan oldiga belbogʻ bilan boʻgʻlaydigan idish. Tomosha qovoq yoki kakos qovogʻidan ham qilinadi.

Asov- xassa, tasavvufda shayxlik nishoni. Ramziy maʼnoda soliqning voliy nafasiga muhtojligini ifodalaydi.

Abo- hirqaga oʻxshash kiyim boʻlib,darveshlardan tavoze va faqirlik nishoniga ishora boʻlgan.





Asoschilarga nisbat berilib nomlangan ilk tariqatlar

No	Tariqat nomlari	Asoschilar
1	Muhosibiya	Horis Muhosibiy
2	Qassoriya	Hamdul Qassor
3	Tayfuriya	Abu Yazid Tayfur al Boyazid Bistomiy
4	Junaydiya	Junayd al – Bag`dodiy
5	Nuriya	Abu Husayn an – Nuriy
6	Sahliya	Sahl ibn Abdulloh at – Tustariy
7	Hakimiya	Hakim at – Termiziy
8	Harroziya	Abu Said ar – Roziy
9	Hafifiya	Abu Abdulloh Muhammad ibn al – Hafif
10	Sayyoriya	Abulabbos as – Sayyoriy
11	Hubayriya	Hubayra al – Basriy
12	Hallojiya	Foris ismli donishmand
13	Hulmoniya	Abu Hulmon ad - Damashqiy

Tasavvuf poydevorini qurganlar

1. Uvays al – Karaniy (vafoti 657)
2. Hasan al – Basriy (642 728)
3. Vosil ibn Ato (699 – 748)
4. Ja`far as – Sodiq (700 – 765)
5. Abdulhoshim Kufiy as – Sufiy (vafoti 767)
6. So`fiyoni as – Savriy (715 - 778)
7. Asad ibn Abdulloh al – kushayriy (vafoti 783)
8. Robiya Adaviya (714 – 801)
9. Ma`ruf al Qahriy (vafoti 816)
10. Xoris Muhosibiy (781 – 857)
11. Zunnun Misriy (796 – 861)
12. Hakim Termiziy (vafoti 869)
13. Boyazid Bistomiy (801 – 875)
14. Abul Husayn Nuriy (vafoti 907)
15. Junayd Bag`dodiy (vafoti 910)
16. Mansur Halloj (858 – 922)
17. Abu Bakr Kolobodiy (vafoti 995)
18. Abu Tolib al – Makkiy (vafoti 996)
19. Muhammad ibn Xusayn as – Sullamiy (942 – 1021)

20. Al – Mufid al – Xorisiy (948 - 1022)
21. Abulqosim al Kushayriy (986 – 1073)
22. Abulhasan Xujriviyy (vafoti 1076)
23. Muhiyiddin ibn al – Arabiy (1165 – 1240)

6 – ilova

